“O‘zbektelekom” AKning
2025-yil “21”- apreldagi
176-son buyrug`iga 1-ilova

# “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi

Toshkent

# Mundarija

**Glossariy** ..... **3**
**1. Kirish** ..... **4**
**2. EIBT maqsadi va qo‘llanilishi sohasi** ..... **5**
**3. Tashkiliy resurslar va majburiyatlar** ..... **6**
**4. EIBT siyosatining asoslari: standartlar, tamoyillar va riskning sohalari** ..... **6**
**5. Ekologik va ijtimoiy risklarni loyihaviy siklda boshqarish** ..... **8**
5.1. EIBTning dastlabki skriningi ..... 9
5.2. EIBTning skriningi ..... 10
5.3. Ta’sirni baholash va risklarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish ..... 15
5.4. EIBT monitoringi va hisobot berish ..... 16
**6. Risklar matritsasi (mitigatsiya mexanizmlari)** ..... **18**
**7. Ilovalar** ..... **24**
7.1. 1-ilova. Ekologik va ijtimoiy istisnolar va OIIB talablari ro'yxati ..... 24
7.2. 2-ilova. Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimini (EIBT) sinovdan o‘tkazish ..... 25
7.3. 3-ilova. Shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmining sxemasi (ShKM) ..... 25
7.4. 4-ilova. Shablon: Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi (EIBR) ..... 26
7.5. 5-ilova. EIBT skriningi bo‘yicha hisobot ..... 29
7.6. 6-ilova. Ekologik va ijtimoiy natijalar hisobotining sxemasi (EINHS/ ESPR) ..... 37
7.7. 7-ilova. Iqlimiy risklar ..... 43

**Glossariy**

| | |
|---|---|
| AIIB (OIIB) | Osiyo infratuzilma investitsiyalari banki |
| ESMS (EIBT) | Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi |
| E&S | Ekologik va ijtimoiy jihatlar |
| ESIA (EITB) | Ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholash<br>Taklif etilgan loyihaning ekologik va ijtimoiy ta’sirlarini aniqlash, prognoz qilish va baholash jarayoni, asosiy qarorlar yoki majburiyatlar qabul qilishdan oldin amalga oshiriladi. Ushbu jarayon tizimli tahlil qilish va ularni yumshatish, boshqarish hamda monitoring qilish uchun tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqishni oʻz ichiga oladi. |
| ESEL | Environmental and Social Exclusion List (Ekologik va ijtimoiy istisnolar roʻyxati) |
| ESMF(EIBK) | Environmental and Social Management Framework (Ekologik va ijtimoiy boshqaruv konsepsiyasi)<br>Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi konsepsiyasi (EIBK) faqatgina loyiha amalga oshirilishi jarayonida aniqlanadigan chora-tadbirlarni oʻz ichiga olgan hollarda zaruriyatga ega boʻladi. EIBK, chora-tadbirlar aniq belgilanganidan soʻng, ushbu tadbirlarni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan ekologik va ijtimoiy risklarni aniqlash va boshqarish boʻyicha zaruriy protseduralarni ta’riflaydi. Ushbu tizim, ekologik va ijtimoiy risklarni aniqlash va ular boʻyicha samarali boshqaruv choralarini koʻrish imkoniyatini yaratadi, shu bilan birga loyiha jarayonida yuzaga kelishi mumkin boʻlgan potensial risklarni oldini olishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqadi. |
| ESMP (EIBR) | Environmental and Social Management Plan (Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi)<br>Loyiha risklarini boshqarish strategiyasini hujjatlashtiruvchi reja, u ekologik va ijtimoiy ta’sirni baholash (ETB) natijalariga asoslanadi. Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi (EIBR) salbiy oqibatlarni kamaytirish boʻyicha chora-tadbirlarni, ularning amalga oshirilishi muddatlarini, zarur resurslarni va mas’uliyat sohalarini belgilaydi. Bundan tashqari, EIBR tayyorgarlik va malaka oshirishga doir choralarga, ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimini amalga oshirish uchun institutlararo mexanizmlarga hamda monitoring talablariga oid qoidalarni oʻz ichiga oladi. |
| IFC (XMK) | International Finance Corporation (Xalqaro moliya korporatsiyasi) |
| Investitsion loyiha | Investitsiya loyihasi — iqtisodiy, ijtimoiy yoki ekologik maqsadlarga erishish uchun qisman yoki toʻliq investorlar, banklar, davlat yoki xalqaro jamgʻarmalar tomonidan moliyalashtiriladigan tadbirlar majmuyi. |
| Xalqaro moliya institutlarining Ekologik va | Ushbu hujjatni tayyorlashda avvalo Xalqaro moliya korporatsiyasi (XMK) va Osiyo Infratuzilma Investitsiyalari Banki (OIIB) tomonidan Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimini ishlab chiqish |

| | |
|---|---|
| ijtimoiy boshqaruv tizimi bo‘yicha tavsiyalari | bo‘yicha belgilangan talablar va tavsiyalar inobatga olingan. |
| EBRD (YTTB) | Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki |
| World Bank (JB) | Jahon Banki |

## 1. Kirish

Mazkur Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi (EIBT) “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasining ekologik va ijtimoiy risklarini aniqlash, baholash, yumshatish choralarini rejalashtirish va boshqarish bo‘yicha tizimlashtirilgan tartiblar va ish jarayonini ifodalovchi tizim hisoblanadi.

Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi (EIBT) orqali “O‘zbektelekom” aksiyadorlik kompaniyasi potensial loyihalarni ekologik va ijtimoiy jihatdan tahlil qilib, ulardan kelib chiqishi mumkin bo‘lgan salbiy ta’sirlarni aniqlash va bu ta’sirlarni kamaytirish, oldini olish yoki kompensatsiya qilish uchun zarur choralar ishlab chiqadi. Ushbu tizimning yana bir muhim jihati — loyihalar amalga oshirilayotganda zarur chora-tadbirlarning samaradorligini monitoring qilish va ekologik hamda ijtimoiy salbiy oqibatlarni bartaraf etish uchun doimiy nazoratni ta’minlashdir.

Mazkur tizim xalqaro miqyosda tan olingan barqaror rivojlanish standartlari va tamoyillari asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasining ekologik va ijtimoiy siyosatining xususiyatlari hamda talablari inobatga olingan holda ishlab chiqiladi.

*Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi (EIBT) quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o‘z ichiga oladi:*

1. Siyosat va maqsadlar: atrof-muhit va jamiyatga salbiy ta’sirlarni kamaytirish bo‘yicha majburiyatlarni belgilash.
2. Risklar va ta’sirlarni baholash: ekologik va ijtimoiy risklarni aniqlash, tasniflash va tahlil qilish.
3. Risklarni boshqarish: salbiy ta’sirlarning oldini olish yoki kamaytirish uchun zarur chora-tadbirlarni ishlab chiqish va joriy etish.
4. Monitoring va hisobot berish: amalga oshirilgan chora-tadbirlarning bajarilishini doimiy nazorat qilish va manfaatdor tomonlarga hisobotlar taqdim etish.
5. Qayta aloqaga chiqish va takomillashtirishlar: tizimni doimiy ravishda takomillashtirish, tahlil natijalari asosida yangi chora-tadbirlar va mexanizmlar ishlab chiqish.

Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimining (EIBT) maqsadlari:

1. Investitsiyalarning atrof-muhitga va ijtimoiy guruhlarga salbiy ta’sirini oldini olish va agarda buning iloji bo‘lmasa, bunday ta’sirlarni minimal darajaga keltirish va yengillashtirish.
2. Ekologik va ijtimoiy jihatlarning (E&S) foydasini maksimal darajada oshirish.
3. Korporativ va loyihaviy siyosatlar va E&Sni boshqarish bo‘yicha jarayonlar o‘rtasidagi uyg‘unlikni ta’minlash, barcha bosqichlarda, loyihalarni rejalashtirishdan (Kompaniya tomonidan ushbu faoliyat jihatlari bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar) va loyiha ishga tushirilgunga qadar, ularning Kompaniya doirasida yagona tarzda amalga oshirilishiga kafolat berish.
4. E&Sni boshqarish jarayonlari va talablarini rasmiylashtirish hamda mustahkamlash, milliy va mahalliy normativ hujjatlarga rioya qilinishini ta’minlash, shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar standartlari va eng ilg‘or xalqaro amaliyotlarga muvofiqligini ta’minlash.

EIBT doirasida manfaatdor tomonlar bilan aloqalar ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish va kamaytirish jarayonida muhim rol oʻynaydi. Kompaniya manfaatdor tomonlardan olingan murojaatlar va/yoki shikoyatlar boʻyicha axborot berish, ularni oʻz vaqtida koʻrib chiqish, tahlil qilish va qonunchilik hujjatlarida hamda Manfaatdor tomonlar bilan oʻzaro hamkorlik siyosatida belgilangan muddatda qayta aloqani taqdim etish majburiyatini oʻz zimmasiga oladi.

## 2. EIBT maqsadi va qoʻllanilishi sohasi

Mazkur EIBT ilk bor “Oʻzbektelekom” AKda ekologik va ijtimoiy jihatlarni (E&S) boshqarish maqsadida ishlab chiqilgan. Ushbu EIBT Kompaniya faoliyati bilan bogʻliq ekologik va ijtimoiy risklarni aniqlash, baholash, boshqarish va monitoring qilish uchun tizimli yondashuvni yaratishga moʻljallangan.
“Oʻzbektelekom” AK barcha sohalarda, shu jumladan mahsulotlar va xizmatlar boʻyicha E&Sni boshqarish amaliyotini yaxshilashga intiladi. Asosiy e’tibor quyidagi yoʻnalishlarga qaratilgan:

- Amaldagi ekologik va ijtimoiy standartlarga rioya qilish. Taklif etilayotgan loyihalar uchun belgilangan talablar bajarilishini ta’minlash.
- Mas’uliyatli moliyalashtirish. Loyihalar ikki guruhga tasniflanadi:
  - Moliyaviy institutlar orqali moliyalashtiriladigan loyihalar, ular amaldagi standartlarga muvofiqligi boʻyicha tekshiruvdan o'tishi kerak (4-bo'limga muvofiq);
  - Majburiy (davlat) loyihalar, ular sektorni rivojlantirish va O'zbekiston Respublikasining rivojlanish strategiyasini amalga oshirishga qaratilgan bo'lib, ichki normativlarga va milliy talablarga qat'iy rioya qilingan holda amalga oshiriladi.
- Risklarni boshqarish integratsiyasi. Kompaniyaning ichki risklarini boshqarish tizimida ekologik va ijtimoiy risklarni hisobga olish.
- Shaffoflik va maslahatlar. Loyihalar amalga oshirilishi jarayonida manfaatdor tomonlarga ma’lumot taqdim etish orqali ochiqlikni ta’minlash, shuningdek, asosiy ishtirokchilar va ekspertlar bilan maslahatlashish orqali ularning fikrlarini inobatga olish va belgilangan talablarni bajarish.
- Hamkorlik. Loyiha jarayonlarida ishtirok etayotgan kompaniyalar rahbariyati bilan talab qilingan ekologik va ijtimoiy standartlarga rioya qilinishini ta’minlash boʻyicha choralar koʻrish.

Qoʻllaniladigan ekologik va ijtimoiy talablar:

1. Faoliyatda muvofiqlik: “Oʻzbektelekom” AK oʻz faoliyatida O'zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligiga, shuningdek, ekologik xavfsizlik, aholining zaif ijtimoiy qatlamlari huquqlarini himoya qilish, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi, shuningdek, pudratchi va xizmat koʻrsatuvchi tashkilotlar bilan aloqalarni tartibga solish borasidagi eng yaxshi sohaviy amaliyotlari va xalqaro moliyaviy institutlarning[1], regulyatorlarning hamda tegishli standartlarning tavsiyalariga rioya qiladi.
2. Xalqaro moliyaviy institutlarining tavsiyalari: Kompaniya oʻzining investitsiya loyihalari va biznesni rivojlantirishga qaratilgan loyihalarni amalga oshirishda xalqaro moliyaviy institutlarning standartlari va tavsiyalarini hisobga oladi. Kompaniya tomonidan amalga oshiriladigan loyihalar

[1] barqaror rivojlanishni standartlar, tavsiyalar va investitsiya loyihalarini moliyalashtirish orqali qoʻllab-quvvatlovchi tashkilotlar, jumladan, ekologik va ijtimoiy jihatlar boʻyicha YTTB, JB kabi xalqaro moliya institutlarining tavsiyalarini oʻz ichiga oladi.

ekologik va ijtimoiy istisnolar ro‘yxatiga (ESEL) muvofiqligi jihatidan 1-ilovada keltirilgan ro‘yxatga muvofiq tekshiruvdan o‘tkaziladi.

Mazkur EIBT barcha xodimlar, operatorlar va “O‘zbektelekom” AK loyihalari ishtirokchilariga taqdim etiladi, ularning ishtiroki va belgilangan standartlarga rioya qilinishini ta’minlaydi.

## 3. Tashkiliy resurslar va majburiyatlar

“O‘zbektelekom” AKning Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi Kompaniyaning korporativ darajasida Xavflarni boshqarish qo‘mitasi tomonidan nazorat qilinadi, operatsion darajada esa - Risk-menejment boshqarmasi tomonidan amalga oshiriladi (1-rasm).

Ekologik va ijtimoiy risklarni samarali boshqarish va EIBTning talablariga rioya qilish mas’uliyati Risk-menejment boshqarmasiga yuklatiladi.

Risk-menejment boshqarmasi Kompaniyada ekologik va ijtimoiy risklarni baholash va boshqarish jarayonida turli bo‘linmalar o‘rtasida o‘zaro aloqalarni muvofiqlashtirishda muhim rol o‘ynaydi, bunda, barqaror rivojlanish masalalarini umumiy boshqarish Transformatsiya va strategik rivojlantirish departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

*1-rasm. Ekologik va ijtimoiy jihatlarni inobatga olgan holda barqaror rivojlanish masalalarini boshqarish sxemasi*




2024-yilda Kompaniya Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi (EIBT) tamoyillarini joriy etishga kirishgan. Tizimni sinovdan o‘tkazish natijalari 2-ilovada keltirilgan.

## 4. EIBT siyosatining asoslari: standartlar, tamoyillar va riskning sohalari

2-rasmda ko‘rsatilganidek, EIBT siyosatining asosini sakkizta universal tamoyil (ko‘k rang bilan ajratilgan) va to‘rtta asosiy standart (binafsha rangda ajratilgan) tashkil etadi, ular “O‘zbektelekom” AKning yondashuvini aks ettirgan holda asosiy ekologik va ijtimoiy jihatlarni qamrab oladi.

*2-rasm. EIBT konsepsiyasi*




EIBTning to‘rtta asosiy standarti alohida hujjatlar shaklida nashr etiladi:

1. Barqaror rivojlanish borasidagi siyosati
2. Inson huquqlariga rioya qilish borasidagi siyosati.
3. Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish siyosati.
4. Ijtimoiy moliyalashtirish sohasidagi siyosati.

EIBTning sakkizta asosiy tamoyili quyidagilarni tashkil etadi:

1. Inson huquqlariga rioya qilish: inson huquqlari barcha siyosatlar va amaliyotlar markazida bo‘lishini kafolatlaydi.
2. Zaif guruhlarning ehtiyojlarini himoya qilish: risklar zonasida bo‘lgan aholi guruhlarini ustuvor tartibda qo‘llab-quvvatlash.
3. Jinsiy tenglik va ayollarning holatini yaxshilash: barcha sohalarda teng imkoniyatlarni ta’minlashda ko‘maklashish va barcha jihatlarda ayollarni qo‘llab-quvvatlash.
4. Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro aloqalar: qaror qabul qilish jarayoniga barcha tegishli tomonlarning faol ishtirokini ta’minlash.
5. Erkin, oldindan va ongli ravishda rozilik: hamjamiyatlarning xabardor qilingan holda qarorlar qabul qilish huquqini hurmat qilish.
6. Hisobdorlik va shikoyatlar: shaffof javobgarlikni ta’minlash va natijalarni kuzatish uchun aniq mexanizmlar o‘rnatish.
7. Ehtiyotkorlik tamoyili: ekologik yoki ijtimoiy risklar holatlarida oldindan ogohlantirish va zaruriy choralarni ko‘rish.
8. Telekommunikatsiya sohasidagi eng yaxshi xalqaro amaliyotlar: sohaning barqarorligini ta’minlash va raqobatbardoshligini oshirish uchun xalqaro standartlar va innovatsion yechimlarni kuzatib borish.

EIBT tamoyillari Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi doirasida belgilangan boʻlib, bunda, manfaatdor tomonlar bilan oʻzaro aloqalar tamoyili, yaʼni risklarni aniqlash va baholash jarayonidagi asosiy tamoyil, sxema shaklida taqdim etilgan. Bu, manfaatdor tomonlar bilan oʻzaro samarali hamkorlikni ta'minlash, shuningdek, jarayonning barcha bosqichlarida jamoatchilik uchun maʼlumotlarni oshkor qilishda ishtirok etishga koʻmaklashishga qaratilgan. Sxema 3-ilovada keltirilgan.

Telekommunikatsiya sohasiga xos boʻlgan risklar hududlari:

**Ekologik risklar:**
- baza stansiyalari va Data-markazlarning faoliyati bilan bogʻliq boʻlgan energiya isteʼmoli va issiqxona gazlari ajratmalari;
- chiqindilarning shakllanishi, shu jumladan, uskunalar va materiallar;
- telekommunikatsiya minoralarini oʻrnatishda biologik xilma-xillikka salbiy taʼsir.

**Ijtimoiy risklar:**
- infratuzilma obyektlarini joylashtirish bilan bogʻliq masalalar yuzasidan mahalliy hamjamiyatlar bilan ziddiyatlar kelib chiqishi ehtimoli;
- ishchilarning mehnat huquqlari buzilishi, xususan, ish sharoitlari xavfsizlik talablariga mos kelmasligi;
- aholining zaif guruhlari uchun aloqa xizmatlari cheklanganligi.

Yuqorida keltirilgan risklardan tashqari EIBT doirasida risklarni aniqlash jarayoni ancha kengroq boʻlib, barcha potensial ekologik va ijtimoiy risklarni oʻz ichiga olishi kerak. Shulardan, telekommunikatsiya sohasidagi loyihalar uchun alohida ahamiyatga ega boʻlgan 5 ta risk hududi ajratib koʻrsatilgan, yaʼni:

- Sogʻliqni saqlash, xavfsizlik va jamoat xavfsizligi bilan bogʻliq risklar.
- Mehnat va ish sharoitlari;
- Resurslardan foydalanish samaradorligi, atrof-muhitni ifloslantirish, chiqindilar, kimyoviy moddalar va issiqxona gazlari ajratmalari;
- Loyihani ishlab chiqishda iqlim oʻzgarishini hisobga olmaslik riski.

## 5. Ekologik va ijtimoiy risklarni loyihaviy siklda boshqarish

Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish jarayonining asosiy bosqichlari quyida keltirilgan
3-rasmda koʻrsatilgan:

1. **Dastlabki skrining:**
   - Loyihaning dastlabki tahlili — potensial risklarni aniqlash va keyinchalik baholash zaruratini belgilash;
   - Loyihaning risk darajasiga qarab tasniflanishi (past, oʻrtacha, yuqori).
2. **Skrining:**
   - Chuqurlashtirilgan tahlil — asosiy ekologik va ijtimoiy risklarni aniqlash;
   - Baholash doirasini belgilash va qoʻshimcha tadqiqotlar oʻtkazish zaruriyatini aniqlash.
3. **Risklarni baholash:**
   - Aniqlangan risklarni batafsil oʻrganish, ularning kelib chiqishi ehtimolini va potensial taʼsirini baholash;
   - Risklarni kamaytirish, bartaraf etish yoki kompensatsiya qilish boʻyicha takliflar ishlab chiqish.

4. **Tasdiqlash:**
   - Taklif qilingan risklarni boshqarish choralarini inobatga olgan holda loyihaning amalga oshirilishi maqsadga muvofiqligi yuzasidan qaror qabul qilish;
   - Manfaatdor tomonlar bilan risklarni boshqarish rejasini kelishish.
5. **Boshqarish, monitoring va baholash:**
   - Loyihaning barcha bosqichlarida risklarni boshqarish bo'yicha choralarni amalga oshirish;
   - Choralarning samaradorligini doimiy monitoring qilish, ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish;
   - Muntazam ravishda tekshiruvlar o'tkazish va barqaror boshqarish maqsadlariga erishishni baholash.

*Rasm 3. Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish jarayonining bosqichlari*




### 5.1. EIBTning dastlabki skriningi

Dastlabki skrining — fakultativ bosqich bo'lib, xususan "O'zbektelekom" AKning yirik investitsiya loyihalarida amalga oshirilishi tavsiya etiladi. Ushbu bosqichning asosiy maqsadi — loyiha ishlab chiqilishining dastlabki bosqichlarida ekologik va ijtimoiy jihatlar hisobga olinishini ta'minlash.
Dastlabki skrining EIBT anketasi bo'lmagan (5-ilova, 9-jadvalsiz), EIBT skriningi uchun soddalashtirilgan versiyasi shaklidan foydalangan holda amalga oshiriladi.

### 5.2. EIBTning skriningi

**Skrining jarayoni: muddatlar, maqsadlar va qarorlar**

Skrining loyihaning dizayni yetarli darajada detallashtirilgandan, loyihaning geografik zonasi aniqlangandan, asosiy faoliyat turlari, shuningdek, manfaatdor tomonlar va benefitsiarlar aniqlangandan soʻng, darhol amalga oshiriladi. Skriningning asosiy maqsadi — maʼlum boʻlgan risklarning muhimligiga asoslangan holda loyihani amalga oshirishda yuzaga kelishi mumkin boʻlgan risklar darajasini (past, oʻrtacha, jiddiy yoki yuqori) aniqlash. Risklar kelib chiqishi darajasi oʻrtacha, jiddiy yoki yuqori boʻlgan loyihalar keyinchalik baholanishini talab etadi, risklar kelib chiqishi darajasi past boʻlgan loyihalar esa qoʻshimcha choralar koʻrilishini talab etmaydi. Risklar kelib chiqishi darajasi oʻrtacha, jiddiy va yuqori boʻlgan loyihalar uchun turli xil baholash turlari qoʻllanilishi lozim, ular maʼlum boʻlgan risklarning jihatlari va hajmidan kelib chiqqan holda skrining jarayonida aniqlanadi.
Quyidagi diagrammada koʻrsatilganidek, skrining quyidagi qarorlarni qabul qilishga olib keladi:

- Ekologik va ijtimoiy risklar va ularning potensial ahamiyati qanday?
- EIBTning standartlari qoʻllanilyaptimi yoki ushbu standartlarning qaysi birini qoʻllash mumkin?
- 1- va 2-bosqichlar asosida loyihaning risklar darajasini (past, oʻrtacha, jiddiy yoki yuqori) qanday aniqlash mumkin?
- 1-3 bosqichlar asosida, qanday baholash turi amalga oshirilishi va ushbu standartga xos boʻlgan qanday instrumentlarni qoʻllash lozim?

*Rasm 4. EITB Skriningi — Asosiy qarorlar*




4-rasmdagi ESMP/EIBR (Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi), ESMF/EIBK (Ekologik va ijtimoiy boshqaruv konsepsiyasi), ESIA/EITB (Ekologik va ijtimoiy taəsirni baholash) instrumentlari tavsifi 5.3-bandda keltirilgan. Ammo, shuni taʼkidlash lozimki, EIBT (Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi)

qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan standartni tanlash jarayonini ko‘rib chiqmaydi, chunki ushbu bosqich tegishli hujjatlar ishlab chiqilishi davrida batafsil ko‘rsatib o‘tiladi.

### *Skriningni asoslash uchun EIBTning so‘rovnomasi qo‘llanilishi*

*Skriningni o‘tkazishda EITB uchun so‘rovnomadan foydalaniladi. So‘rovnoma quyida keltirilgan 5-rasmda ko‘rsatilgan 4 ta bo‘limdan iborat bo‘lad*[2]*i.*:

*5-rasm. EIBT skriningi so‘rovnomasining tuzilishi*

**A. Loyihaning qisqacha tavsifi**

**B. Ijtimoiy yoki ekologik ta’sirni baholash**

- Ayollar huquqlari tengligi va unga tegishli xavf-risklar
- Aholining zaif guruhlariga xavf-risklar ta'siri
- Inson huquqlari buzilishi risklari
- Aholining salomatligi, xavfsizligi va himoya qilinishiga ta’sir qiluvchi risklar
- Mehnat va ish sharoitlari
- Resurslardan foydalanish samaradorligi, atrof-muhitning ifloslanishi, chiqindilar, kimyoviy moddalar va issiqxona gazlarining ajratmalari

**C. Standartlar bilan bog‘liq potensial ta‘sirlar**

- Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish siyosati
- Inson huquqlariga rioya qilish borasidagi siyosati
- Ijtimoiy moliyalashtirish sohasidagi siyosati
- Barqaror rivojlanish borasidagi siyosati

**D. EIBT prinsiplariga rioya qilish**

Loyihani ishlab chiqishda EIBT prinsiplariga qanchalik rioya qilinganligini aniqlash (masalan, manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro aloqalar sifati, ayollar huquqlari va manfaatlarini inobatga olgan holda konsultatsiyalar o‘tkazish va hokazolar).

**Ekologik va ijtimoiy risklar sohalarining ahamiyatini aniqlash**

Har bir ekologiya va xavfsizlik sohalariga oid risklar bo‘yicha so‘rovnomaning **B** bo‘limida “O‘zbektelekom" AKning sharhlovchisi yuqoridagi risklar sohasining ehtimolligi va kutilyotgan ta’sirini (yoki oqibatlarini) 1 (past) dan 5 (yuqori) gacha bo‘lgan shkala bo‘yicha baholaydi. **C** bo‘limidagi to‘rtta standartning har biri bo‘yicha ham xuddi shunday baholash ishlari amalga oshiriladi. Reytingni shakllantirishda quyidagi metodologiya qo‘llaniladi:

Ehtimollik quyidagi beshta toifa bo‘yicha baholanadi:

- Yuzaga kelishi gumon (1);
- Yuzaga kelishi kutilmayapti (2);
- Yuzaga kelishi mumkin (3);

[2] e’tibor bering, "Loyiha ishlab chiqishda iqlim o'zgarishi inobatga olinmaslik xavfi" xavf sohasi EIBT skrining anketasidan alohida ko'rib chiqiladi, chunki u uchun boshqa metodologiya talab etiladi.

- Yuzaga kelishi ehtimoli katta (4);
- Yuzaga kelishi aniq (5).

Ta’sir (yoki oqibatlar) — bu hodisaning ekologik yoki ijtimoiy obyektlar va guruhlarga ta’sir qilishi darajasini anglatadi. Bunday tahlilni o‘tkazishda quyidagi omillarni inobatga olish zarur:

- Ekologik va ijtimoiy retseptorlarning sezgirligi — masalan, yuqori biologik xilma-xillikka ega hududlar, aholi zich joylashgan joylar yoki qaytib kelayotgan qochoqlar soni ko‘pligi bilan ajralib turadigan hududlar.
- Ta’sirning miqyosi — ta’sirning jiddiyligi yoki mashtabi qanday? Bu ta’sir katta geografik hududga, ko‘plab odamlarga ko‘rsatilyaptimi?
- Boshqaruv qobiliyati — ta’sirni samarali kamaytirish uchun vositalar va choralar mavjudmi? Kompaniya tomonidan tegishli choralar ko‘rilganmi yoki ta’sirni boshqarish mumkinligini va qanday boshqaruv choralariga ehtiyoj borligini aniqlash uchun batafsil tadqiqotlar o‘tkazish zarurmi?
- Davomiyligi — salbiy ta’sir qisqa muddatli bo‘ladimi (masalan, faqat qurilish jarayonida) yoki uzoq vaqt davom etadimi?
- Qaytishligi — ta’sir qaytariladigan yoki qaytarib bo‘lmaydigan holatmi?

Ta’sir yoki oqibatlar quyidagi beshta toifa (baholash toifalari) bo‘yicha baholanadi, ular yuqorida keltirilgan omillarga asoslangan holda quyidagi jadvalda keltirilgan:

*Jadval 1. Ta‘sirni baholash toifalari*

| Toifa | Tavsifi |
|---|---|
| Kritik (5) | Insonlar va/yoki atrof-muhitga juda katta miqdordagi kritik ta’sir, shu jumladan katta miqyosda va/yoki hududiy tarqalishda (keng geosiyosiy hudud, ko‘plab odamlar, transchegaraviy ta’sir) uzoq muddatli (doimiy va tiklanmaydigan); retsipiyentlar yuqori darajada sezgir deb hisoblanadi; yuqori qimmatli bioxilma-xillikka ega hududlarga salbiy ta’sirlar, mahalliy aholi yerlariga va resurslariga jiddiy ta’sir, uzoq muddatli yashash sharoitlariga salbiy ta’siri sababli odamlarning katta migratsiyasi yoki ko‘chib ketishi, uzoq muddatli ta’sirlarga olib keladigan jiddiy ijtimoiy mojarolar holatlari kiradi. |
| Kuchli (4) | Insonlar va/yoki atrof-muhitga sezilarli miqdordagi salbiy ta’sir, shu jumladan katta miqyosda va/yoki hududiy tarqalishda (keng geosiyosiy hudud, ko’plab odamlar, transchegaraviy ta’sir), ma’lum bir davomiylikda, ammo zararni kamaytirish uchun yetarlicha sa’y-harakatlar bilan tiklanadigan ta’sir; retsipiyentlar sezgir deb hisoblanadi; yuqori qimmatli bioxilma-xillikka ega hududlarga salbiy ta’sirlar, mahalliy aholi yerlariga va resurslariga zarar yetkazish, vaqtincha yashash sharoitlariga ta’sir etuvchi odamlarning katta migratsiyasi yoki ko‘chib ketishi, ta’sirlar ijtimoiy mojarolarni keltirib chiqarishi va bu mojarolar cheklangan davomiylikda davom etishi kutilyapti. |
| O‘rtacha (3) | O‘rtacha kattalikdagi salbiy ta’sirlar, cheklangan miqyosda (kichik hudud va kichik miqdorda zarar ko‘rganlar), vaqtinchalik davomiylikda, nisbatan taxmin qilinadigan va ularni oldini olish, boshqarish va/yoki kamaytirish mumkin bo‘lgan ma’lum yechimlar va oddiy choralar bilan boshqariladigan ta’sirlar. |
| Past (2) | Kichik miqyosdagi salbiy ta’sirlar (masalan, juda kichik hududda, kam odam zarar ko‘rgan), qisqa muddatli ta’sir, osonlikcha oldini olish, boshqarish va kamaytirish mumkin bo‘lgan ta’sir. |
| Kichik (1) | Jamiyatlar, alohida shaxslar va/yoki atrof-muhitga deyarli sezilarli yoki hech qanday salbiy ta’siri yo‘q. |

Ijtimoiy va ekologik boshqaruv tizimi (EIBT) bo‘yicha risk sohalari va standartlarga muvofiqlikning yakuniy baholanishi EIBTni tekshirish va tasdiqlash shablonining ikkinchi bosqichida umumiy jadvalda qayd etiladi.

Baholash har bir risk sohasining ahamiyatini ko‘rsatadi, loyihani amalga oshirishda bajarilishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarni, shuningdek, ta’sir darajasi va EIBT standartlariga muvofiq qo‘llanilishi zarur bo‘lgan himoya vositalarini aniqlaydi.

*Jadval 2. Riskning ahamiyatini baholash*

| | | ***Risk yuzaga kelishi ehtimoli va ta’sirini baholash jadvali:*** | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Yuzaga kelishi gumon *(1)* | Yuzaga kelishi kutilmayapti *(2)* | Yuzaga kelishi mumkin *(3)* | Yuzaga kelishi ehtimoli katta *(4)* | *Oddiy holat (5)* |
| *Ta’siri* | *Kritik (5)* | *O'rtacha* | Muhim | *Kuchli* | *Kuchli* | *Kuchli* |
| | *Kuchli (4)* | *Past* | *O'rtacha* | Muhim | Muhim | *Kuchli* |
| | *O‘rtacha (3)* | *Past* | *O'rtacha* | O'rtacha | O'rtacha | Muhim |
| | *Past (2)* | *Past* | *Past* | O'rtacha | Средний | O'rtacha |
| | Kichik *(1)* | *Past* | *Past* | *Past* | *Past* | *Past* |

EIBT bo‘yicha skrinining hisobotini to‘ldirish va loyihaning risklar toifasini aniqlash

Loyihaning risklar toifasini aniqlash risklarning alohida sohalarini va to‘rtta standartlarga muvofiqligini baholash ishlari yakunlangandan so‘ng, amalga oshiriladi. Bular quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

1. Alohida risklar va standartlarning ahamiyatini hisobga olish.
2. Loyihani ishlab chiqishda EIBT tamoyillariga rioya qilinganlini baholash.
3. Risklarni kamaytirish choralari va himoya vositalarining zarurligini va turini tahlil qilish.

Natijada loyiha quyidagi to‘rtta risk toifalaridan biriga tasniflanadi: past, o‘rtacha, muhim yoki yuqori.

*Jadval 3. Loyihaning risklar toifalari bo‘yicha tavsiflanishi*

| Loyihaning risklari toifasi | **Tavsifi** |
|---|---|
| Yuqori darajali | Yuqori darajali risklarga ega loyihalar potensial ravishda katta ekologik yoki ijtimoiy salbiy ta’sirlarga ega bo‘lishi mumkin, bu ta‘sirlar qaytarib bo‘lmaydigan, keng miqyosda va sezgir hududlar yoki jamoalarga ta’sir qilishi mumkin. Bunday ta’sirlar ko‘pincha manfaatdor tomonlarda xavotir uyg‘otadi va keng qamrovli baholashni, batafsil boshqaruv rejalarini va keng qamrovli maslahatlashuvlarni talab qiladi. Salbiy oqibatlarni kamaytirish uchun standart choralar yetarli emas; maxsus vositalar, masalan, Mahalliy aholini himoya qilish rejasi tuzilishi talab qilinadi. |

| | |
|---|---|
| Muhim darajali | Muhim ekologik va/yoki ijtimoiy risklar va ta’sirlar bilan bog‘liq loyihalar, bu ta’sirlar ma'lum bir hudud bilan cheklangan va yuqori darajali risklar yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan loyihalarga qaraganda kamroq sezilarli, ammo o‘rtacha riskli loyihalardan ko‘ra ta’siri jiddiyroq bo‘lishi mumkin. Bunday loyihalar ayrim muhim riskli masalalarni yoki bir nechta o‘rtacha risklarni o‘z ichiga olishi mumkin, bu esa alohida ekologik va ijtimoiy baholashni talab qiladi. Himoya vositalari, masalan, infratuzilma qurilishi va obyektlar qurilishi uchun reabilitatsiya rejasini o‘z ichiga olishi mumkin. |
| O‘rtacha darajali | Ekologik va ijtimoiy ta’sirlar bilan bog‘liq loyihalar, bu ta’sirlar yuqori yoki muhim darajali risklar yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan loyihalarga nisbatan kamroq sezilarli va ko‘p emas. Odatda, bunday ta’sirlar loyiha hududi bilan cheklangan, oldindan prognozlanishi mumkin, kamdan-kam hollarda qaytarilmaydigan bo‘ladi va EIBR (Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi)da ko‘rsatilgan standart choralar bilan muvaffaqiyatli bartaraf etilishi mumkin. |
| Past darajali | Ekologik va ijtimoiy ta’sirlar minimal darajada bo‘lgan yoki mavjud bo‘lmagan loyihalar yoki oldindan ishlab chiqilgan, risklarni kamaytirish choralariga asoslanib hisobga olingan loyihalar. Bunday loyihalar uchun qo‘shimcha baholash talab etilmaydi. Skrining hisobotida minimal darajadagi risklarni boshqarish uchun EIBR standartlaridan eng yaxshi amaliyotlarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar keltirilishi mumkin. |

Risklarni baholash jarayonining natijalari va zarur chora-tadbirlar 6-rasmda keltirilgan.

*Rasm 6. Risklarni baholash jarayonining natijasi*




## Rasmiy skrining va o‘z-o‘zini baholash o‘rtasidagi farq

“O‘zbektelekom” AK rasmiy skrining va o‘z-o‘zini baholash orqali amalga oshiriladigan skriningni farqlaydi. Rasmiy EIBT (Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi) skriningi bitta yoki ikkita EIBT mutaxassisi tomonidan amalga oshiriladi va loyiha budjeti 5 000 000 AQSh dollaridan yuqori bo‘lgan “O‘zbektelekom” AKning barcha loyihalari uchun majburiydir. Budjeti ushbu miqdordan past bo‘lgan loyihalar uchun tashabbuskor (Kompaniyaning tarkibiy bo‘linmasi) alohida shakl bo‘yicha o‘z-o‘zini baholashni amalga oshiradi va loyiha holatini skrining anketasini (5-ilova) to‘ldirish orqali mustaqil ravishda tekshiradi. Savollar shunday tarzda tuzilganki, asosiy riskning muammolarini intuitiv ravishda tushunish mumkin bo‘ladi.

Budjeti 5 000 000 AQSh dollaridan kam bo‘lgan va risklar mavjud bo‘lmagan yoki faqat past darajali risklar yuzaga kelishi aniqlangan loyihalar uchun tashabbuskor past darajali risk yuzaga kelishi mumkinligini asoslantirilgan holda skrining shakliga izohlar kiritadi va ushbu hujjat EIBTning ruxsatnomasi sifatida qabul qilinadi. Tashabbuskor tomonidan EIBT anketasini to‘ldirish jarayonida riskning muammolari aniqlanganda, loyihalar EIBTning rasmiy skriningi jarayonidan o‘tkazilishiga yo‘naltiriladi.

### 5.3. Ta’sirni baholash va risklarni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish

O‘rtacha, jiddiy yoki yuqori darajali risklar yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan loyihalar risklarni tahlil qilish va ularni boshqarish strategiyasini ishlab chiqish uchun batafsil baholanishni talab qiladi. Salbiy oqibatlarni kamaytirish “kamaytirish iyerarxiyasi”ga asoslanadi: avval salbiy oqibatlarning oldini olish choralari ko‘riladi, so‘ngra ularni minimallashtirishga harakat qilinadi, qolgan oqibatlar esa (agar ularning oldini olish imkoniyati bo‘lmasa) kompensatsiya qilinadi.

Risk darajasi yuqori bo‘lgan barcha loyihalar uchun ekologik va ijtimoiy ta’sirni to‘liq baholash (ESIA/EITB – Ekologik va ijtimoiy ta’sirni baholash) o‘tkazilishi talab qilinadi. Kompleks ESIA/EITB loyihaning barcha salohiyatli ta’sirlarini batafsil baholashni o‘z ichiga oladi, bu baholash tahlil doirasini belgilash va rejalashtirish bosqichidan boshlanadi. EIA/EITB hisobotining asosiy elementlari 7-rasmda ko`rsatilgan.

**To‘liq ESIA / EITBning xususiyatlari:**
• Manfaatdor tomonlar bilan tahlil qilish va maslahatlashuvlar o‘tkazish uchun maxsus metodologiya qo‘llaniladi, shu jumladan asosli fikrlarni yig‘ish uchun dastlabki hisobotlar e’lon qilinishi ta’minlanadi.
• Jarayonning barcha bosqichlarida manfaatdor tomonlar va huquq egalari bilan aloqalar o‘rnatiladi.

**ESIA / EITB bosqichlari:**
• Siyosiy, huquqiy va ma’muriy bazalarni tahlil qilish;
• Ekologik va ijtimoiy ma’lumotlarni to‘plash;
• Ta’sirlarni prognozlash va baholash;
• Muqobil variantlarni tahlil qilish;
• Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasini (ESMP/EIBR) ishlab chiqish.

To‘liq ESIA / EITB tashqi ekspertlar tomonidan, odatda, maslahatchilar guruhi tomonidan amalga oshiriladi.

*7-rasm. ESIA / EITB hisobotining asosiy elementlari*

| | |
|---|---|
| **Loyiha tavsifi** | • Loyihaning qisqacha va aniq ta'rifi, uning ta'sir doirasini, shu jumladan, geografik, ekologik, ijtimoiy va vaqt aspektlarini o'z ichiga olishi kerak. |
| **Siyosiy, huquqiy va ma'muriy bazaning tahlili** | • Atrof-muhit va ijtimoiy muhitga ta'sirni baholash (AMBTB) amalga oshirilayotgan doiralarni aniqlash va loyiha tomonidan ushbu doiralarga rioya qilinishini ta'minlash. |
| **Manfaatdor tomonlarni aniqlash va tahlil qilish** | • Atrof-muhit va ijtimoiy muhitga ta'sirni baholash (AMBTB) jarayonida kimlar ishtirok etishi kerakligini aniqlash, ayniqsa, ta'sirlanishi mumkin bo'lgan guruhlarni belgilash. |
| **Dastlabki ekologik va ijtimoiy ma'lumotlar** | • Loyiha amalga oshirilishidan avval har qanday o'zgarishlarni inobatga olgan holda jarayonning boshlang'ich nuqtasini aniqlash. |
| **Ekologik va ijtimoiy ta'sirlarni baholash** | • Ijtimoiy va ekologik risklarni tahlil qilish va muhim oqibatlarni aniq prognozlash. |
| **Muqobil variantlarni tahlil qilish** | • Loyihaning maqsadlariga erishishning boshqa variantlarini ko'rib chiqing va loyihani amalga oshirmaslik variantini ko'rib chiqqan holda, oqibatlarni taqqoslang. |
| **Ekologik va ijtimoiy ta'sirlarni boshqarish rejasi** | • Oqibatlarning oldini olish va minimallashtirish uchun tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqish, shuningdek, ularning samaradorligini nazorat qilish mexanizmlarini yaratish. |
| **Manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashuv natijalari** | • Ekologik va ijtimoiy aspektlar bilan bog'liq muammolarni aniqlash va ularni yengillashtirish bo'yicha harakatlar rejasini tuzish. |

**O‘rtacha yoki jiddiy darajali risk** yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan loyihalar uchun “ekologik va ijtimoiy risklarni maqsadli baholash” deb ataluvchi, qisman ESIA/EITB amalga oshiriladi. Bunday tahlil to‘liq ESIA/EITB bilan bir xil tuzilishga ega bo‘lgan, ammo yanada torroq qamrovli, skrinning bosqichida aniqlangan asosiy risklarga e’tibor qaratgan holda baholashni nazarda tutadi.

Qisman baholash kamroq vaqt va resurslarni talab qiladi, ammo aniqlangan risklarga nisbatan proporsional bo‘lishi kerak. Ba’zi hollarda, baholash faqat ijtimoiy risklarga qaratilgan bo‘lishi mumkin.

## 5.4. EIBT monitoringi va hisobot berish

"O‘zbektelekom" AK loyihaning risklari va barqaror rivojlanish sohasidagi ta’sirlar bilan bog‘liq ekologik va ijtimoiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha EIBTni amalga oshirish va monitoring qilish to‘g‘risida hisobotlar taqdim etadi. Hisobotlar xalqaro moliyaviy institutlar bilan kelishilgan holda tayyorlanadi. Katta darajali risklar yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan loyihalar bo‘yicha salbiy ta’sirlarni tekshirish va ularni bartaraf etish uchun mustaqil malakali ekspertlar jalb qilinishi mumkin.

Katta darajali risklar yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan loyiha – bu loyihada risklar shunchalik jiddiyki, ular qaytarilmas, uzoq muddatli bo‘lishi yoki murakkab choralar bilan ham ularni boshqarish qiyin bo‘lishi mumkin. Masalan, maxsus himoya qilinadigan tabiiy hudud orqali optik tolali kabelni tortish loyihasi.

Loyiha tasdiqlangandan so‘ng, EIBT menejeri:

1. Ekologik va ijtimoiy standartlarga rioya qilinishini ta’minlash maqsadida loyiha ishtirokchilari faoliyatini muntazam ravishda muvofiqlashtirib boradi.
2. Moliyaviy institutlarga aniqlangan har qanday qoidabuzarliklar yoki risklar haqida xabar beradi (so‘rov bo‘yicha).

EIBT menejeri loyiha ko‘rsatkichlari bo‘yicha hisobotlarni tayyorlash, ularning standartlarga muvofiqligini baholash va shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmining samaradorligini nazorat qilish uchun javobgardir (GRM)[3].

“O‘zbektelekom” AK bunday loyihalar bo‘yicha barcha jiddiy hodisalarni hisobga olish va monitoring qilishni amalga oshiradi. Har bir jiddiy hodisa haqida EIBT menejeriga xabar berilishi zarur. Hodisaning tafsilotlari, rasmiy tergov yoki yuridik harakatlar o‘tkazilishiga qarab aniqlanadi.

Jiddiy hodisalar — bu atrof-muhitga yoki odam salomatligiga zarar yetkazgan va/ yoki uchinchi tomonlarning diqqatini jalb qilgan hodisalardir (masalan, yong‘in, portlash, kimyoviy moddalar yoki neftning to‘kilishi, ifloslantiruvchi moddalar chiqarilishi), shu jumladan, o‘lim, jiddiy jarohatlar (tez yordam yoki kasalxonaga yotqizishni talab qiladigan jarohatlar), ish vaqtining yo‘qolishi bilan bog‘liq baxtsiz hodisalar (tiklanish uchun bir kundan ko‘proq vaqt talab etadigan) va kompensatsiya talab qilinadigan hodisalar.

[3] Agar loyiha xalqaro moliya institutlari tomonidan jalb qilingan mablaglar hisobidan moliyalashtirilsa, so‘roviga muvofiq Ekologik va ijtimoiy natijalar bo‘yicha yakuniy hisobot (ESPR/EINH) tegishli moliya institutiga yuboriladi. ESPR/ EINHning qisqacha tavsifi 6-ilovada keltirilgan.

## 6. Risklar matritsasi (mitigatsiya mexanizmlari)

*Jadval 4.Matritsa risklari*

| Aspekt | Buzilishga olib keluvchi omillar (risklar yuzaga kelishi sohalari) | Aspektni boshqarish yondashuvi | Normativ hujjat va funksional bo‘linma | EIBTning dastlabki tashxisiga asosan riskni baholash darajasi[4] |
|---|---|---|---|---|
| **S (Social)** | | | | |
| 1. Hayot huquqi, sog'liq huquqi | • Mehnat xavfsizligi va xavfsizlik texnikasi sohasida prinsiplarning yetarlicha rivojlanmaganligi va vositalarning joriy etilmaganligi;<br>• Xodimlar xavfsizlik masalalari bo‘yicha muntazam ravishda o‘qitilmaganligi va ko‘rsatmalar berilmaganligi;<br>• Pudratchi tashkilotlar tomonidan xavfsizlik standartlariga rioya qilinishini nazoratga olinmaganligi. | • Shtatdagi xodimlar va shartnoma bo‘yicha ishlovchilarni tegishli ravishda tanlash, tayyorlash, jihozlash va nazorat qilish;<br>• Kompaniya faoliyati bilan bog‘liq ravishda aholi salomatligini saqlash va xavfsizligini ta’minlash;<br>• Xodimlar va mahalliy jamoatchilik tomonidan xavfsizlik tizimi va xavfsizlik xizmati xodimlari bilan bog‘liq xavotirlar sababli shikoyatlarni kiritish va ko‘rib chiqish mexanizmi mavjudligi. | • Inson huquqlari siyosati.<br>• Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish siyosati.<br>• Kompaniyaning mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasi sohasidagi ichki tartibi qoidalari.<br>• Sifat menejmenti tizimi (SMT).<br>• ISO 9001, ISO 14001, ISO 45001. | Past |
| 2. Majburiy mehnatga solinmaslik huquqi | • Mehnat qonunchiligi buzilishi. | • Harakat erkinligini ta’minlash, o`z xohishi bilan ishdan bo‘shash imkoniyatini yaratish;<br>• Shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar yoki mablag‘larni xodimlarni ushlab turish maqsadida ushlab qolishdan voz kechish. | • O‘zbekiston Respublikasi Mehnat qonunchiligi: O‘zbekiston Respublikasi tomonidan belgilangan mehnat huquqlari va normalarini ta’minlaydigan hujjatlar va qonunlar to`plami.<br>• Kompaniya xodimi bilan tuzilgan Mehnat | Past |

[4] XMK metodologiyasiga muvofiq amalga oshirilgan, 2024-yil noyabr oyi.

| Aspekt | Buzilishga olib keluvchi omillar (risklar yuzaga kelishi sohalari) | Aspektni boshqarish yondashuvi | Normativ hujjat va funksional bo‘linma | EIBTning dastlabki tashxisiga asosan riskni baholash darajasi[4] |
|---|---|---|---|---|
| | | | shartnomasi shartlari: Kompaniya va xodim o'rtasida tuzilgan Mehnat shartnomasi va kelishuvlar, shu jumladan ishga qabul qilish, mehnat majburiyatlari, huquqlar va javobgarliklar.<br>• Inson huquqlari siyosati: Kompaniyaning inson huquqlarini hurmat qilish va himoya qilishga qaratilgan strategiyalari va siyosati. Bu, xodimlar, hamkorlar va boshqa manfaatdor tomonlar bilan munosabatlarda asosiy prinsiplarni belgilaydi. | |
| 3. Shaxsiy hayotga daxlsizlik huquqi | • Ruxsatsiz ma’lumot to‘plash va qayta ishlash (masalan, xodimlarning joylashuvi haq ma’lumotlarini ularning roziligisiz to‘plash); • Shaxsiy ma’lumotlarning tarqalishi (masalan, pasport ma’lumotlari yoki telefon raqamlarini ommaga oshkor qilish);<br>• Kuzatuv kameralarini xodimlar yoki mahalliy jamoatchilikning roziligisiz | • Maxfiylik siyosatini ishlab chiqish va joriy etish;<br>• Ma’lumotlarga kirishni cheklash, ularning qayta ishlanishini nazorat qilish;<br>• Xodimlarni shaxsiy ma’lumotlar bilan ishlashga o‘rgatish. | • O‘zbekiston Respublikasi mehnat qonunchiligi;<br>• Kompaniya xodimi bilan tuzilgan Mehnat shartnomasi shartlari;<br>• Inson huquqlari siyosati. | O‘rtacha |

| Aspekt | Buzilishga olib keluvchi omillar (risklar yuzaga kelishi sohalari) | Aspektni boshqarish yondashuvi | Normativ hujjat va funksional bo‘linma | EIBTning dastlabki tashxisiga asosan riskni baholash darajasi[4] |
|---|---|---|---|---|
| | o‘rnatish. | | | |
| 4. Mehnat sharoitlari bo‘yicha adolatli va qulay huquqlar | • Mehnatni muhofaza qilish standartlarining buzilishi;<br>• Mehnat haqi bo‘yicha tengsizlik;<br>• Majburiy yoki bolalar mehnati. | • Milliy va xalqaro mehnat standartlariga (masalan, Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik) muvofiqlikni ta’minlash;<br>• Xodimlarni mehnatni muhofaza qilish va ishchilarning huquqlari bo‘yicha o‘qitish dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish;<br>• Barcha obyektlarda mehnat sharoitlarini muntazam tekshirish va audit qilish. | • O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi;<br>• “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun;<br>• “Aholining sanitariya-epidemiologik farovonligi to‘g‘risida”gi Qonun;<br>• O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy Kodeksi;<br>• “Fuqarolarning salomatligini muhofaza qilish to'g'risida”gi Qonun. | Past |
| 5. Yaxshi yashash sharoitlariga bo‘lgan huquq | • Loyihalash faoliyati tufayli majburiy ko‘chirish;<br>• Loyiha amalga oshiriladigan hududda infratuzilmaning yomonlashuvi (suv, elektr energiyasi, yo‘llardan foydalanish). | • Loyiha boshlanishidan oldin ijtimoiy risk va ta’sirlarni baholash;<br>• Ta’sirlangan aholi uchun kompensatsiya va ko‘chirish dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish;<br>• Joylardagi infratuzilmani rivojlantirishga sarmoya kiritish, shu jumladan yo‘llar, suv ta’minoti tizimlari va elektr tarmoqlari;<br>• Joylardagi aholi bilan maslahatlashuvlarni tashkil etish, ularning manfaatlari va ehtiyojlarini hisobga olish. | • O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi;<br>• “Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun;<br>• “Aholining sanitariya-epidemiologik farovonligi to‘g‘risida”gi Qonun;<br>• O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi;<br>• “Fuqarolarning salomatligini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun. | Past |

| Aspekt | Buzilishga olib keluvchi omillar (risklar yuzaga kelishi sohalari) | Aspektni boshqarish yondashuvi | Normativ hujjat va funksional bo‘linma | EIBTning dastlabki tashxisiga asosan riskni baholash darajasi[4] |
|---|---|---|---|---|
| | | • Loiyha amalga oshirilgandan so‘ng, shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmlari va yashash sharoitlarini monitoring qilishni amalga oshirish. | | |
| 6. Inklyuziv imkoniyatlarni yaratish huquqi | • Cheklangan imkoniyatlarga ega shaxslar uchun inklyuziv muhit yaratish bo‘yicha dasturlarning yo‘qligi;<br>• Moslashtirilgan infratuzilma (panduslar, liftlar, maxsus uskunalar)ning yetishmasligi;<br>• Ishga joylashishda jins, yosh, etnik kelib chiqish yoki nogironlikka nisbatan kamsitilish | • Teng imkoniyatlar va inklyuziya siyosatini ishlab chiqish va joriy etish;<br>• Xodimlar uchun diskriminatsiya va inklyuziya masalalari bo‘yicha treninglar o‘tkazish;<br>• Inklyuziya tamoyillariga rioya qilishni muntazam ravishda tekshirish va monitoring qilish. | • O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi;<br>• “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun;<br>• Xalqaro standartlar (BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi). | Past |
| **E (Ekologik)** | | | | |
| 1. Resurslardan samarali foydalanish (elektr energiyasi, suv, muhim xomashyo va boshqalar) | • ortiqcha energiya va suv sarfi;<br>• energiyani tejash va suv samaradorligi bo‘yicha dasturlarning mavjud emasligi. | • energiya va suvni tejash texnologiyalarini joriy etish;<br>• resurslar iste’molini audit qilish;<br>• xom ashyoning ikkilamchi foydalanish dasturlarini yaratish. | • O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya kodeksi.<br>• “Energiyani tejash to‘g‘risida”gi Qonun. | O‘rtacha |
| 2. Issiqxona gazlari (IG) ajratmalari | • Issiqlikxona gazlari (IG) ajralishi nazorati yetishmasligi. | • Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o‘tish.<br>• Uglerod izini kamaytirish dasturlarini ishlab chiqish. | • Parij kelishuvi<br>• O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya Kodeksi | O‘rtacha |
| 3. Xavfli va xavfsiz chiqindilar | • Qayta ishlovsiz chiqindilarni to‘plash va yig‘ish.<br>• Utilizatsiya standartlariga | • Chiqindilarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish bo‘yicha dasturlarni ishlab chiqish.<br>• Chiqindilarni tashish va | • “Chiqindilar to‘g‘risida”gi Qonun. | O‘rtacha |

| Aspekt | Buzilishga olib keluvchi omillar (risklar yuzaga kelishi sohalari) | Aspektni boshqarish yondashuvi | Normativ hujjat va funksional bo‘linma | EIBTning dastlabki tashxisiga asosan riskni baholash darajasi[4] |
|---|---|---|---|---|
| | rioya etmaslik.<br>• Materiallardan qayta foydalanish samaradorligi pastligi. | saqlash ustidan nazorat o‘rnatish. | | |
| 4. O‘rmon yerlarini yoki botqoqli yerlarni o‘zlashtirish | • Qurilish maqsadida o‘rmonlarni kesish.<br>• Botqoqliklarni quritish, ekotizimlarni yo‘q qilish. | • Atrof-muhitga ta’sirni baholashni (AMTB) o‘tkazish.<br>• Kompensatsiya choralarini ishlab chiqish (o‘rmonlarni ekish, hududlarni tiklash). | • “O'rmonlarni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun.<br>• O'zbekiston Respublikasi Ekologiya Kodeksi. | Past |
| 5. Qurg‘oqchilik, haroratning oshishi | • Landshaft va iqlim o‘zgarishlari sababli tabiiy suv havzalarining kamayishi.<br>• Hududning iqlimiga xos xususiyatlar, mintaqada tabiiy haroratning oshishi. | • Loyiha boshlanishidan oldin suv resurslariga ta’sirni baholash.<br>• Iqlim o‘zgarishlariga moslashish rejalarini ishlab chiqish.<br>• Juda issiq vaqtda ish vaqtini qisqartirish va qo‘shimcha tanaffuslar tashkil etish | • O‘zbekiston Respublikasining “Suv ta’minoti va oqova suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni.<br>• O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya Kodeksi | O‘rtacha |
| 6. Yerning eroziyasi | • Tuproq yetarli darajada himoyasiz qolishi oqibatida shamol eroziyasi.<br>• Qurilish va ishlab chiqarish ishlari natijasida landshaftning buzilishi. | • Tuproqqa eroziyaga qarshi ishlov berish texnologiyalarini qo‘llash.<br>• Tepaliklarni mustahkamlash va yer siljishlarini oldini olish.<br>• Yer resurslarini monitoring qilish va ularning foydalanilishi ustidan nazoratni amalga oshirish. | • “O‘rmonlarni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi Qonun.<br>• O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya Kodeksi | O‘rtacha |
| **Iqlimga oid** | | | | |
| 1. To‘fonlar, suv toshqinlari | • Infratuzilmaning noto‘g‘ri joylashuvi (pasttekisliklar yoki yomon drenajli hududlarda), rejalashtirishda iqlimiy | • Risk zonalarini xaritalash, xavfsiz joylashuvlar uchun minoralarni tanlash.<br>• Infratuzilmani iqlimiy risklarni hisobga olib | • O‘zbekiston Respublikasining “Suv va suvdan foydalanish to‘g‘risida”gi Qonuni.<br>• O‘zbekiston | O‘rtacha |

| Aspekt | Buzilishga olib keluvchi omillar (risklar yuzaga kelishi sohalari) | Aspektni boshqarish yondashuvi | Normativ hujjat va funksional bo‘linma | EIBTning dastlabki tashxisiga asosan riskni baholash darajasi[4] |
|---|---|---|---|---|
| | risklarni hisobga olmaslik. | loyihalash (masalan, minoralarni ko‘tarish, kabelni himoya qilish).<br>• Suv o‘tkazmaydigan jihozlar va zaxira energiya manbalarini ishlatish. | Respublikasi Prezidentining “2020-2030-yillarga mo‘ljallangan suv xo‘jaligini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6024-son Farmoni.<br>• O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.11.2022 dan “Favqulodda vaziyatlardan aholini himoya qilish bo‘yicha ishlash samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi PQ-426-son qarori | |

Risklarni tahlil qilish va yangilashga mas’ul funksional bo’linmalar — Xavflarni boshqarish qo‘mitasi va Risk menejmenti boshqarmasi. Jismoniy iqlimiy risklar haqida batafsil ma’lumot 7-ilovada keltirilgan.

# 7. Ilovalar

## 7.1. 1-ilova. Ekologik va ijtimoiy istisnolar va OIIB talablari ro'yxati

***Moliyalashtirilmaydigan loyihalar quyidagilarni oʻz ichiga oladi:***

*5-jadval. OIIBning ekologik va ijtimoiy istisnolari roʻyxati.*

| T/r | Nomlanishi |
|---|---|
| 1. | Majburiy mehnat yoki bolalar mehnatining zararli yoki ekspluatatorlik shakllari. |
| 2. | Har qanday mahsulot yoki faoliyatni ishlab chiqarish yoki ularning savdosi, agar u ishtirokchi davlatning milliy qonunlari yoki qoidalariga, shuningdek, xalqaro konvensiyalar va kelishuvlarga muvofiq noqonuniy hisoblansa, yoki xalqaro bosqichma-bosqich taqiqlash yoki cheklovlarga uchrasa, masalan: |
| 2.1. | Tarkibida polixlorlangan bifinil (PB) boʻlgan mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki ularning savdosi. |
| 2.2. | Xalqaro bosqichma-bosqich taqiqlash yoki cheklovlarga (Rotterdam konvensiyasi, Stokgolm konvensiyasi) muvofiq boʻlgan farmatsevtik preparatlar, pestitsidlar/gerbitsidlar va boshqa xavfli moddalarning ishlab chiqarilishi yoki ularning savdosi. |
| 2.3. | Xalqaro bosqichma-bosqich taqiqlashga (Monreal protokoli) muvofiq boʻlgan ozon qatlamiga zarar yetkazuvchi zararli moddalarning ishlab chiqarilishi yoki ularning savdosi. |
| 3. | Yoʻqolib ketish xavfi ostida boʻlgan, Xalqaro yovvoyi flora va fauna turlari savdosini tartibga soluvchi konvensiya (CITES) bilan tartibga solinadigan, yovvoyi hayvonlar savdosi yoki yovvoyi tabiat mahsulotlarini ishlab chiqarish yoki ularning savdosi. |
| 4. | Xalqaro huquq bilan taqiqlangan chiqindilarni transchegaraviy koʻchirish (Bazel konvensiyasi). |
| 5. | Qurol va oʻq-dorilarni, shu jumladan harbiy materiallarni ishlab chiqarish yoki ularning savdosi. |
| 6. | Spirtli ichimliklarni ishlab chiqarish yoki ularning savdosi (pivo va vino bundan mustasno). |
| 7. | Tamakini ishlab chiqarish yoki uning savdosi. |
| 8. | Azartli oʻyinlar, kazinolar va ularga oʻxshash korxonalar. |
| 9. | Asbest tolalarini ishlab chiqarish, ularning savdosi yoki ulardan foydalanish, bogʻlangan yoki bogʻlanmagan holda. |
| 10. | Ishtirokchi mamlakatining qonunchiligi yoki biologik xilma-xillik yoki madaniy resurslarni himoya qilishga oid xalqaro konvensiyalar, masalan, Bonn konvensiyasi, Ramsar konvensiyasi, Butunjahon merosi konvensiyasi va Biologik xilma-xillik konvensiyasi bilan taqiqlangan faoliyat. |
| 11. | Tijorat maqsadidagi oʻrmon qazish ishlari yoki birlamchi tropik nam oʻrmonlar yoki qadimiy oʻrmonlarda ishlatish uchun oʻrmon qazish uskunalarini sotib olish. |
| 12. | Yogʻoch (древесина) yoki boshqa oʻrmon mahsulotlarini ishlab chiqarish yoki ularning savdosi, barqaror boshqaruv amalga oshirilayotgan oʻrmonlardan tashqari. |
| 13. | Dengiz va qirgʻoq boʻyi baliqchilik usullari, masalan, keng koʻlamli pelagik drift tutish va mayda toʻqilgan toʻr bilan tutish usullari, zaif va himoya qilinadigan turlarga katta miqdorda zarar yetkazadigan hamda dengiz biologik xilma-xilligiga va yashash joylariga salbiy ta’sir koʻrsatadigan usullar. |
| 14. | Neft yoki boshqa xavfli moddalarning tankerlarda tashilishi, agar ular Xalqaro dengiz tashkiloti (XDT), Xalqaro kemalardan ifloslanishni oldini olish konvensiyasi, Xalqaro dengizda inson hayotini himoya qilish konvensiyasi yoki Parij Memorandumi talablariga javob bermasa. |
| 15. | Energetik koʻmirini qazib olish, koʻmirli elektr stansiyalari va isitish inshootlari yoki koʻmir bilan funksional ravishda bogʻliq loyihalar. |

***OIIB Ekologik va ijtimoiy standartlar (ESS) 1-3 talablari:***

*6-jadval. OIIB boʻyicha talablar*

| | Maqsad | Qoʻllanilishi | Talablar |
|---|---|---|---|
| **ESS 1: Ekologik va ijtimoiy** | Loyihalarning ekologik va ijtimoiy barqarorligini | Standart ekologik va ijtimoiy jihatdan | Bank tomonidan moliyalashtiriladigan har |

| | | | |
|---|---|---|---|
| **barqarorlik** | ta’minlash, ekologik va ijtimoiy aspektlarni qaror qabul qilish va loyihani amalga oshirish jarayoniga integratsiya qilish. | potensial ravishda salbiy risklar va ta’sirlarni keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan loyihalarga nisbatan qo‘llaniladi. | qanday loyiha uchun batafsil ekologik va ijtimoiy baholashni o‘tkazish. |
| **ESS 2: Majburiy ravishda ko‘chirilish** | Loyiha bilan bog‘liq ko‘chirish jarayonini boshqarish, ta’siri bo‘lgan aholi uchun salbiy oqibatlarni minimallashtirish. | Majburiy ko‘chirilishni o‘z ichiga olgan loyihalar, jumladan:<br>• Fizik ko‘chirilish: yashayotgan yeri yoki boshpananing yo‘qolishi.<br>• Iqtisodiy ko‘chirilish: yer, aktivlar yoki tirikchilik vositalarining yo‘qolishi. | Ko‘chirish rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish, shu jumladan kompensatsiya va yashash sharoitlarini tiklash. |
| **ESS 3: Mahalliy aholi** | **Loyiha ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan mahalliy aholi huquqlari va manfaatlarini himoya qilish.** | Mahalliy aholi mavjud bo‘lgan yoki ularning kollektiv bog‘liqligi mavjud bo‘lgan hududlarda amalga oshiriladigan loyihalar. | Mahalliy aholi bilan aloqalar rejasini ishlab chiqish, ularning madaniy va ijtimoiy xususiyatlarini inobatga olish.<br>Mahalliy aholining o‘z manfaatlariga ta’sir qiluvchi qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirok etishini ta’minlash. |

## 7.2. 2-ilova. Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimini (EIBT) sinovdan o‘tkazish

## 7.3. 3-ilova. Shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmining sxemasi (ShKM)

## 7.4. 4-ilova. Shablon: Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi (EIBR)

*1-jadval. EIBR shabloni*

| **Shablon: Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi (EIBR)** | | |
|---|---|---|
| **EIBT (Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi) standartlari** | **Joriy etilgan** | **Asosiy masalalar, ularni hal qilish usullari va alohida reja tayyorlash zaruriyati** |
| Inson huquqlariga rioya qilish borasidagi siyosati | ☐ ha<br>☐ yo‘q<br>☐ aniqlanishi kerak | |
| Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish siyosati | ☐ ha<br>☐ yo‘q<br>☐ aniqlanishi kerak | |
| Ijtimoiy moliyalashtirish sohasidagi siyosati | ☐ ha<br>☐ yo‘q<br>☐ aniqlanishi kerak | |
| Barqaror rivojlanish borasidagi siyosati | ☐ ha<br>☐ yo‘q<br>☐ aniqlanishi kerak | |

| | **Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi (EIBT) siyosati va qoidalariga rioya qilish bo‘yicha chora-tadbirlar** | **Xarajatlar** | **Amalga oshirilishi uchun javobgarlik** | **Jadval** |
|---|---|---|---|---|
| Ma'lumotlar oshkor qilinishiga talablar | | | | |
| Shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmi | | | | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Ayollarning huquqlarini va imkoniyatlarini mustahkamlash | | | | | |
| Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro aloqalar | | | | | |
| **Asosiy ijtimoiy va ekologik oqibatlar hamda ularga qarshi choralar ko‘rish bo‘yicha tegishli yumshatish tadbirlari** | | | | | |
| **Ekologik va ijtimoiy oqibatlar** | **Ehtimollik** | **Oqibatlarni yumshatish tadbirlari** | **Xarajatlar** | **Javobgarlik** | **Jadval** |
| Inshootlar va liniyali infratuzilma (kabellar, yo‘l tizimlari) qurilishi va o‘rnatilishi natijasida ilgari ishlatilmagan yer maydonlarida ekotizimlar va biologik xilma-xillikning buzilishi | Past | | | Filial | |
| Qushlarning aloqa minoralari bilan to‘qnashishi riski (ularning balandligi, tuzilishi va joylashuvi sababli) | Past | | | Filial | |
| Landshaftning o‘zgarishi hamda mahalliy hamjamiyatlar tomonidan salbiy qabul qilinishi ehtimoli | Past | | | Filial | |
| Xavfli chiqindilarning paydo bo‘lishi | O‘rtacha | Kompaning chiqindilarni utilizatsiya qilish bo‘yicha siyosatlari bugungi kunda ishlab chiqish bosqichida bo‘lib, 2025-yil yakuniga qadar tasdiqlanadi. | | Risk menejmenti boshqarmasi | |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| Tuproq ishlari olib borilayotganda changning koʻpayishi va harakatlanish cheklovlari | Past | | | Filial | |
| Shovqinli ifloslanish va zaxiraviy generatorlar, sovutish tizimlari va transport vositalarining ajratmalari | Past | | | Filial | |
| Elektr va magnit maydonlaridan (EMM) sogʻliq uchun potensial oqibatlar | Past | | | Filial | |
| Qurilish maydonlarida ishchilar uchun risklar | Oʻrtacha | Ishchilarga ishlab chiqarish vazifalarini bajarishga faqat quyidagi majburiy talablar bajarilgandagina ruxsat beriladi:<br>• Tibbiy komissiya koʻrigidan oʻtish;<br>• Ishlarni xavfsiz olib borish usullari bilan tanishtirish.<br><br>Ba’zi xodimlar uchun, ularning lavozim majburiyatlariga qarab, maxsus kiyim va shaxsiy himoya vositalari berish koʻzda tutilgan. | | Mehnatni muhofaza qilish va xafvsizlik texnikasi xizmati | |
| EIBTning yangi risklari | | | | | |
| | | | | | |

* Agar riskning yuzaga kelishi ehtimoli past darajada boʻlsa, risk filiallar tomonidan kuzatiladi va nazorat qilinadi, ular E&S boʻyicha oʻz vaqtida javob berish va boshqarishni ta’minlaydi.

## 7.5. 5-ilova. EIBT skriningi bo‘yicha hisobot

***Loyiha ma’lumotlari***

*2-jadval.* EIBT *bo‘yicha skrining (tekshiruv) haqida hisobot*

| | | | |
|---|---|---|---|
| Loyihaning nomi: | | | |
| Loyiha tashabbuskori: | | | |
| Ijrochi: | | | |
| Moliyalashtiruvchi agentlik: | | | |
| Loyihaning boshlanishi sanasi va davomiyligi: | | | |
| Mamlakat: | | Shartnoma qiymati: | |
| Ilgari xavfsizlik yoki Ekologik va ijtimoiy ta’sirni baholash/ESIA tekshiruvlari o‘tkazilganmi? | ☐ ha<br>☒yo'q | Agar o‘tkazilgan bo‘lsa, batafsil ma’lumotlar: | |
| | Loyiha tashabbuskori vakilining ismi va lavozimi | | Sana |
| EIBT So‘rovnomasi to‘ldirilgan: | | | |
| EIBT skriningi quyidagi holatlarda zarur: | **1.** ☒ zarur, chunki loyihaning budjeti ≥ 5 000 000 USD<br>**2.** ☐ talab qilinadi - bu kichik loyiha (< 5 000 000 AQSh dollari) bo'lishiga qaramay, loyiha tashabbuskori EIBT anketasini to'ldirishda xavflarni aniqladi.<br>**3.** ☐ talab etilmaydi, chunki loyihaning budjeti < 5 000 000 USD va loyiha tashabbuskori so‘rovnoma to‘ldirilganda hech qanday ekologik yoki ijtimoiy risklar aniqlanmaganligini tasdiqlaydi | | |

***EIBT skriningi hisoboti***

| | Ism | Tarkibiy bo‘linma va “O'zbektelekom" AKdagi funksiyasi | Sana |
|---|---|---|---|
| EIBT tekshiruvchisi | | | |
| | Sarlavha | | Sana |
| Skrining bosqichida taqdim etilgan hujjatlar: | | | |
| | | | |
| | | | |
| Risk toifasi: | ☐ past darajali risk | ☒ o‘rtacha darajali risk | ☐ yuqori darajali risk |
| Asos: | (Misol) Loyihani amalga oshirish o‘rtacha riskli deb baholanadi. Rejalashtirilgan tadbirlar atrof-muhit uchun ijobiy natijalar keltiradi, chunki ular iqlim o‘zgarishlari tufayli yuzaga keladigan iqlimiy risklarni | | |

| | |
|---|---|
| | kamaytirishga qaratilgan. Ijtimoiy ta’sirlar ham ijobiy bo‘lishi kutilmoqda: tadbirlar mahalliy salohiyatni mustahkamlash va zaif guruhlarni qo‘llab-quvvatlashga mo‘ljallangan. Alohida e’tibor mahalliy an’anaviy bilimlar va amaliyotlarni integratsiyalashga qaratilgan.<br>Loyiha asosan mahalliy jamoalarga kichik va o‘rta miqyosdagi grantlarni taqdim etishni o‘z ichiga olganligi sababli, uning umumiy riski o‘rtacha deb tasniflanadi. Risklarni kamaytirish uchun ekologik va ijtimoiy risklarni baholash jarayonlarini o‘z ichiga olgan, shuningdek, har bir grant uchun zaruriy baholashlar va tekshiruvlarni amalga oshirishda rollar va mas’uliyatlarni belgilovchi Ekologik va ijtimoiy menejment konsepsiyasini (EIMK/ESMF) ishlab chiqish zarur. |
| Talab qilinadigan baholashlar va vositalar: | ☐ To‘liq ekologik va ijtimoiy ta’sirni baholash (EITB/ESIA)<br>☐ Qisman ekologik va ijtimoiy ta’sirni baholash (EITB /ESIA)<br>☒ Ekologik va ijtimoiy menejment rejasi (EIBR/ESMP)<br>☒ Ekologik va ijtimoiy menejment konsepsiyasi (EIBK/ESMF)<br>☐ Boshqa: loyiha bosqichida ijtimoiy va tashkiliy baholash |
| Ayollar huquqlarini himoya qilish va mustahkamlash uchun zarur chora-tadbirlar | (Misol) Mahalliy aholining amaliyotlarini batafsil tahlil qilinishini ko‘zda tutuvchi Gender masalalar bo‘yicha harakatlar rejasi ishlab chiqiladi. U mahalliy hamjamiyatlarning madaniy an’analari va hokimiyat xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqiladi. |

| EIBT standartlari | Tatbiq etilgan | Zarur vositalar yoki rejalar: |
|---|---|---|
| Barqaror rivojlanish borasidagi siyosati | ☐ ha<br>☒ yo‘q<br>☐ hali aniqlanmagan | |
| Inson huquqlariga rioya qilish borasidagi siyosati | ☒ ha<br>☐ yo‘q<br>☐ TBD | |
| Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro hamkorlik qilish siyosati | ☐ ha<br>☒ yo‘q<br>☐ hali aniqlanmagan | |
| Ijtimoiy moliyalashtirish sohasidagi siyosati | ☐ ha<br>☒ yo‘q<br>☐ hali aniqlanmagan | |

| **EIBT bilan bog‘liq bo‘lgan potensial ta’sirlar** | | | |
|---|---|---|---|
| **A1: Barqaror rivojlanish siyosati** | | | |
| | **Loyiha tashabbuskori** | | **EIBT tekshiruvchisi** |
| | *Ha; Yo‘q; Aniqlan-magan* | *Savolga javob bering, agar zarur bo‘lsa, qo‘shimcha ma‘lumot bering.* | *Izohlar* |
| 1. Loyiha infratuzilmani qurish yoki modernizatsiya qilishga qaratilgan bo‘lsa, loyiha hududida atrof-muhitga yoki biologik xilma-xillikka salbiy ta’sir ko‘rsatish riski bormi? | | | |
| 2. Loyiha chiqindilarni boshqarish choralarini o‘z ichiga olsa, chiqindilarni qayta ishlash, utilizatsiya qilish yoki minimallashtirish tizimlari ekologik ta’sirni kamaytirish uchun belgilanganmi? | | | |
| 3. Loyiha amalga oshirilganda ekologik muvozanatning buzilishi (masalan, tuproqning yomonlashishi, suv resurslarining ifloslanishi) riski mavjudmi? | | | |
| 4. Loyiha energiya, suv yoki boshqa tabiiy resurslar iste’mol qilinishiga olib kelishi mumkinmi? Agar “ha” bo‘lsa, ulardan samarali foydalanish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilanganmi? | | | |
| 5. Barqaror rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari bo`yicha muntazam monitoring va hisobot tayyorlash rejalashtirilganmi (masalan, chiqindilar, resurslarni boshqarish, ijtimoiy ta’sir)? | | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| EIBT tekshiruvchisi tomonidan Barqaror rivojlanish siyosati bo‘yicha xulosa | | | |
| Loyiha doirasida standart qo‘llanganmi? Ha / Yo'q / Aniqlanmagan – Nega? | | | |
| **A2: Inson huquqlari siyosati** | | | |
| | **Loyiha tashabbuskori** | | **EIBT tekshiruvchisi** |
| | *Ha; Yo'q; Aniqlanmagan* | *Savolga javob bering, agar zarur bo‘lsa, qo‘shimcha ma’lumot bering* | *Izohlar* |
| 1. Kompaniya loyihani amalga oshirish doirasida jins, yosh, millat, din yoki nogironlik belgilariga asoslangan diskriminatsiya va inson sha’ni buzilishi holatlari mavjud emasligini qanday ta’minlaydi? | | | |
| 2. Loyihani amalga oshirish borasida inson huquqlari buzilishi risklarini aniqlash, tahlil qilish va baholash uchun qanday mexanizmlar mavjud? | | | |
| 3. Qonunchilikka muvofiq mijozlar, xodimlar va boshqa manfaatdor tomonlarning shaxsiy ma’lumotlari konfidensilal holda saqlanishini ta’minlash uchun qanday choralar ko‘rilgan? | | | |
| 4. Xodimlar va hamkorlar uchun inson huquqlariga rioya qilish va diskriminatsiya qilinmasligi madaniyatini shakllantirish bo‘yicha o‘qitish rejalashtirilganmi? | | | |
| EIBT tekshiruvchisi tomonidan Inson huquqlari siyosati bo‘yicha xulosa | | | |
| Standardga roiya qilinganmi? Ha / Yo'q / Aniqlanmagan - Nega? | | | |

| A3: Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro aloqalar tartibi | | | |
|---|---|---|---|
| | | **Loyiha tashabbuskori** | **EIBT tekshiruvchisi** |
| | *Ha; Yo'q; Aniqlanmagan* | *Savolga javob bering, agar zarur bo‘lsa, qo‘shimcha ma’lumot bering* | *Izohlar* |
| 1. Loyiha amalga oshirilganda manfaatdor tomonlar (mahalliy hamjamiyatlar, davlat organlari) bilan muntazam ravishda aloqada bo‘lish va ularning fikrlarini hisobga olish uchun qanday chora-tadbirlar belgilangan? | | | |
| 2. Mahalliy aholi va boshqa manfaatdor tomonlarning shikoyatlarini qabul qilish, ko‘rib chiqish va hal etish mexanizmi qanday tashkil etiladi? | | | |
| 3. Manfaatdor tomonlarni ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy aspektlar bo‘yicha vaqtida xabardor qilish uchun qanday chora-tadbirlar ko‘rilmoqda? | | | |
| 4. Kompaniya loyiha doirasida yetkazib beruvchilar va pudratchilar tomonidan axloqiy tamoyillarga va qonunchilikka rioya qilinishini qanday nazorat qiladi? | | | |
| 5. Kompaniyaning qaysi tarkibiy bo‘linmalari mahalliy hamjamiyatlar va muhim manfaatdor tomonlar bilan aloqalarni muvofiqlashtirishga jalb qilinadi? | | | |
| EIBT tekshiruvchisi tomonidan Manfaatdor tomonlar bilan o‘zaro aloqalar tartibi bo‘yicha xulosa | | | |
| Standardga roiya qilinganmi? Ha / Yo'q / Aniqlanmagan - Nega? | | | |
| **A4: Ijtimoiy moliyalashtirish siyosati** | | | |
| | | **Loyiha tashabbuskori** | **EIBT tekshiruvchisi** |
| | *Ha; Yo‘q;* | *Savolga javob bering, agar zarur bo‘lsa, qo‘shimcha ma’lumot bering* | *Izohlar* |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | *Aniqlan-magan* | | |
| 1. Kompaniya loyiha doirasida xayriya yoki jamoat tashabbuslarida qatnashishni rejalashtiradimi? | | | |
| 2. Loyiha doirasida xayriya maqsadlarida va homiylik mablag'larini sarflashda barcha xarajatlarning shaffofligi va hujjatlashtirilishi qanday ta'minlanadi? | | | |
| 3. Beg'araz yordam ko'rsatish jarayonida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish uchun qanday nazorat mexanizmlari mavjud? | | | |
| 4. Beg'araz yordamni nohalol raqobat ustunliklarini qo'lga kiritish maqsadida ishlatishga yo'l qo'ymaslik uchun qanday chora-tadbirlar ko'rilgan? | | | |
| 5. Xodimlarning xayriya tashabbuslarida ishtiroki rag'batlantiriladimi va bu Kompaniyaning manfaatlari bilan qanday muvofiqlashtiriladi? | | | |
| EIBT tekshiruvchisi tomonidan Ijtimoiy moliyalash siyosati bo'yicha xulosa | | | |
| Standardga roiya qilinganmi? Ha / Yo'q / Aniqlanmagan - Nega? | | | |
| **B. Boshqa ijtimoiy yoki ekologik ta'sirlar** | | | |
| **B1: Ijtimoiy ta'sirlar** | | | |
| | **Loyiha tashabbuskori** | | **EIBT tekshiruvchisi** |
| | *Ha; Yo'q; Aniqlan-magan* | *Savolga javob bering, agar zarur bo'lsa, qo'shimcha ma'lumot bering* | *Izohlar* |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 1. Loyiha hamjamiyatning salomatligi va xavfsizligiga (kasalliklarning tarqalishi, odam va yovvoyi tabiat oʻrtasidagi ziddiyatlar) taʼsir koʻrsatishi riski bormi? | | | |
| 2. Loyiha ayollar va erkaklar oʻrtasidagi tengsizlikni keltirib chiqaradimi yoki ayollarning holatiga, yashash sharoitlariga salbiy taʼsir koʻrsatishi mumkinmi? | | | |
| 3. Loyiha amalga oshirilishi natijasida odamlarning koʻchirilishi yoki ularning iqtisodiy faoliyatiga cheklovlar qoʻyilishi riski bormi? | | | |
| 4. Subloyiha kompaniyasi oxirgi 5 yil ichida hamjamiyatlarga nisbatan ekologik va ijtimoiy koʻrsatkichlar boʻyicha milliy qonunchilikka zid harakatlar qilganmi? | | | |
| **B2: Ekologik taʼsirlar** | | | |
| | **Loyiha tashabbuskori** | | **EIBT tekshiruvchisi** |
| | *Ha; Yoʻq; Aniqlan-magan* | *Savolga javob bering, agar zarur boʻlsa, qoʻshimcha maʼlumot bering* | *Izohlar* |
| 1 Loyiha doirasida ekologik hodisalar va avariyalarning oldini olish uchun qanday chora-tadbirlar koʻrilgan? | | | |
| 2 Qabul qilinishi kutilayotgan mamlakatda, loyiha muvofiq boʻlishi kerak boʻlgan, atrof-muhitga ta'sirni baholash boʻyicha qonuniy talablar mavjudmi? | | | |
| 3 Loyiha havo ifloslanishiga olib kelishi yoki boshqa noqulayliklar (chang, transport harakati, shovqin, hid) yaratishi mumkinmi? | | | |
| 4 Qurilish yoki ishlab chiqarish ishlarini tugatganidan soʻng, yerlarni qayta tiklash uchun qanday chora-tadbirlar belgilangan? | | | |

| | | | |
|---|---|---|---|
| EITB tekshiruvchisi tomonidan Boshqa ijtimoiy yoki ekologik ta'sirlar bo'yicha xulosa | | | |
| **Muayyan salbiy ijtimoiy yoki ekologik risklar yuzaga kelishi kutilyaptimi?** | | | |
| **B. Iqlim o'zgarishi risklari (Insonlar va ekotizimga iqlim o'zgarishi ta'sirining noto'g'ri baholanishi)** | | | |
| | **Loyiha tashabbuskori** | | **EI tekshiruvchisi** |
| | ***Ha**; **Yo'q**; **Aniqlan-magan*** | *Savolga javob bering, agar zarur bo'lsa, qo'shimcha ma'lumot bering* | *Izohlar* |
| 1. Loyiha hududida iqlim o'zgarishining muayyan ta'sirlarini baholash amalga oshirilganmi? Agar "ha" bo'lsa, qanday risklar aniqlangan? | | | |
| 2. Iqlim o'zgarishi bilan bog'liq muayyan risklarni kamaytirish uchun qanday chora-tadbirlar ko'rilishi mumkin? | | | |
| 3. Loyiha amalga oshirilishi natijasida mahalliy hamjamiyatlar yoki ekotizimlar joriy yoki kelajakdagi iqlim o'zgarishlariga nisbatan zaiflashishi mumkinmi? | | | |
| EIBT tekshiruvchisi tomonidan Iqlim o'zgarishi risklari bo'yicha xulosa | | | |

## 7.6. 6-ilova. Ekologik va ijtimoiy natijalar hisobotining sxemasi (EINHS/ ESPR)

**A. Loyihaning batafsil tavsifi:**

*Hisobot davri mobaynida, iltimos, mavjud va rejalashtirilgan operatsiyalaringiz haqida qisqacha ma'lumot bering.*

*4-jadval. Subloyihalar haqida qisqacha ma'lumot*

| **I.Loyiha** | **Qisqacha tavsifi** | **Ishga tushirilishi sanasi** | **Ekologik risk toifasi** | **Ekologik va ko'chirish bilan bog'liq muammolar va ularni hal qilish choralari** |
|---|---|---|---|---|
| 1. [joylashuv] | | | | |
| 2. [joylashuv] | | | | |
| 3. | | | | |
| **II. Qurilish jarayonidagi yoki ko'rib chiqilayotgan subloyihalar** | **Qisqacha tavsifi** | **Ishga tushirilishi sanasi** | **Ekologik risk toifasi** | **Potensial ekologik risk va ko'chirishga oid masalalar** |
| 1. | | | | |
| 2. | | | | |
| 3. | | | | |

**C. Genderli choralarga oid amalga oshirilgan tadbirlar:**

Hisobot davrida gender tengligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar, ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglikni ta'minlashga yo'naltirilgan tashabbuslar haqida ma'lumot berilishi lozim.

**D. Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi (GRM)**

Shikoyatlar va ularni hal etish:

GRM (Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi) bo'yicha amalga oshirilgan ishlar, kelib tushgan shikoyatlar va ularni qanday hal etish choralari ko'rilganligi haqida ma'lumot keltiriladi.

**E. AIIB tomonidan moliyalashtirilgan yangi subloyihalar**

AIIB tomonidan moliyalashtirilgan subloyihalar haqida ma'lumot:

Hisobot davrida moliyalashtirilgan yangi subloyihalar, ularning qisqacha tavsifi va ekologik risk va ko'chirish bilan bog'liq masalalar haqida ma'lumot taqdim etiladi.

| | |
|---|---|
| Kompaniya/Filial nomi: | |
| Subloyihaning nomi: | |
| Subloyihaning joylashuvi: | |
| Subloyihaning umumiy qiymati: | |
| OIIBdan umumiy moliyalashtirish: (million AQSh dollari) | |
| ES toifasi | |
| Tashkilotingizda ekologik va ijtimoiy tekshiruvlar o‘tkazilganmi? | Agar “ha” bo'lsa, to‘g‘ri tekshiruvlar bo‘yicha amalga oshirilgan tadbirlar haqida ma'lumot bering, masalan, kafolatlar bo‘yicha hujjatlarning xonadagi tahlili va joyga chiqib amalga oshirilgan tashriflar va kim tomonidan amalga oshirilganligini ko‘rsating. |
| Subloyihaga oid ekologik va ijtimoiy baholash hisobotlari (shu jumladan ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi) yoki ekologik va ijtimoiy audit hisobotlari tashkilotingiz tomonidan ko'rib chiqilganmi yoki ushbu subloyihaga tayyorlanganmi? | Agar “ha” bo‘lsa, ko`rib chiqilgan hujjatlarning nomlarini ko‘rsating. |
| | |
| Har bir subloyihaning o‘zida, (EIBTni amalga oshirish uchun mas’ul loyiha/xaridor xodimi) filialga ekologik va ijtimoiy kafolatlar bilan bog‘liq talablarni bajarishda yordam berganmi? | Agar “ha” bo‘lsa, qisqacha tushuntiring. |
| Kafolatlar bilan bog‘liq hujjatlar, masalan, EIBR/EIBT yoki E&S audit hisobotlari, OIIB veb-saytiga joylashtirishdan tashqari, ommaga taqdim etilganmi? | Agar “ha” bo‘lsa, saytga kirish uchun havolalar va hujjatlar yuklangan sanani ko‘rsating. |
| Investitsiyalar bilan bog‘liq ravishda ekologik va ijtimoiy masalalar bo‘yicha shartlar yoki bitimlar kiritilganmi? | Agar “ha” bo‘lsa, qisqacha tushuntiring. |
| Subloyihalar davlatning tegishli talablariga javob beradimi? | |
| Subloyihalar OIIB kafolatlari talablariga javob beradimi? | |
| **Ish bilan ta'minlash haqida ma’lumot:**<br>Subloyihadagi ishchilar bandligi (jami; erkaklar; ayollar)<br>Subloyiha doirasida mavsumiy ish bilan bandlik va boshqa joyda ishlash (jami; erkaklar; ayollar)<br>Subloyiha doirasida qurilish ishlarida bandlik (umumiy; erkaklar; ayollar) | |

| | |
|---|---|
| Kompaniya tomonidan subloyihadagi pudratchilar va boshqa tovar va xizmat yetkazib beruvchilarining quyidagi shartlarga rioya qilishini ta’minlash uchun ko‘rilayotgan choralarni tasvirlab bering:<br>(i bola mehnatidan foydalanilmasligi;[5] yoki majburiy mehnatdan foydalanilmasligi;[6]<br>(ii) Ular tegishli boshqaruv tizimlariga ega bo‘lishi, bu esa ularga milliy mehnat qonunchiligiga muvofiq ishlashga va ish sharoitlari va ishga olish shartlari haqida norozilik bildirish va huquqlarini himoya qilish imkonini beradi. | |

[5] Bola mehnati — bu qonun bilan belgilangan minimal mehnat yoshiga yetmagan bolalarning mehnatidan foydalanishni anglatadi, yoki bolalarning mehnatidan foydalanish Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT)ning 138-son "Minimal yosh to‘g‘risidagi Konvensiya" (www.ilo.org)ga zid bo‘ladi.

[6] Majburiy mehnat — bu har qanday ish yoki xizmatlar bo‘lib, ular o‘z ixtiyori bilan amalga oshirilmaydi, ya’ni kuch ishlatish yoki jazo qo‘llash tahdidi ostida bajariladi.

**Subloyihaning ekologik va ijtimoiy monitoring hisoboti uchun taklif qilingan reja**
**(ESPR/EIBR ga ilova qilingan)**

1. Subloyihaning nomi va qisqacha ma’lumotlar
   (i) Subloyiha/korxonaning nomi va joylashuvi
   (ii) Mashtabi/o‘lchami/qurilish quvvati
   (iii) Ushbu monitoring hisobotini qamrab olgan hisobot davri (oy/yil)
   (iv) Loyiha bosqichi va ekspluatatsiyasi boshlangan sana (loyihalash, qurilish, ekspluatatsiya yoki yopish bosqichlari)
   (v) Loyihaning joylashuvi va dizaynidagi muhim o‘zgarishlar (agar mavjud bo'lsa) va asosiy tadbirlar

2. Tegishli ekologik ruxsatnomalar yoki muvofiqlik sertifikatlari
   (i) Davlat organi tomonidan berilgan (davlat organi nomini ko‘rsating)
   (ii) Ruxsatnoma berilgan sanasi va amal qilish muddati
   (iii) Ruxsatnomani uzaytirish bo‘yicha shartlar va talablarning qisqacha tavsifi
   (iv) Boshqa ekologik standartlar va sertifikatlar (masalan, ISO 14000 ekologik boshqaruv tizimining standartlari)

3. Yer olish va majburiy ko‘chirish
   (i) Subloyihalarning yer olish bilan bog‘liq ta’siri va ko‘rilgan choralar

4. Normativ talablarga nomuvofiqlik va uning oqibatlari bilan bog‘liq masalalar
   (i) Nomuvofiqlik turi
   (ii) Ekologik standart yoki spetsifikatsiyaga rioya qilinmagan
   (iii) Nomuvofiqlik ro‘yxatga olingan sanasi va mas’ul idora/agentlik
   (iv) Ommaviy axborot vositalarining yoki jamiyatning reaksiyasi (agar mavjud bo‘lsa)
   (v) Tuzatish choralarini ko‘rish, maqsadli sanalar/muddati, mas’ul shaxslarni belgilash
   (a) qisqa muddatli: muammoni tuzatish choralarini ko‘rish
   (b) uzoq muddatli: profilaktik choralar

5. Shikoyatlarni ko‘rib chiqish mexanizmi
   (i) Yaratigan sanasi va tashkiliy mexanizmlarning ta’rifi
   (ii) Mahalliy aholidan olingan shikoyatlar, da’volar yoki noroziliklar, sanalar va ularni ko‘rib chiqishda ishtirok etgan tashkilotlar, da’volar bo‘yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar; hal qilinmagan har qanday masalalar va ularni hal qilish bo‘yicha taklif etilayotgan chora-tadbirlar
   (iii) Mehnat bo‘yicha da‘vo yoki shikoyatning turi (Kompaniya xodimlari va pudratchi/subpudratchilar ishchilari)
   (iv) Tekshiruv yoki ro‘yxatga olish uchun mas’ul organlar
   (v) Ommaviy axborot vositalarining yoki jamiyatning reaksiyasi (agar mavjud bo‘lsa)
   (vi) Tuzatish choralari, muddatlar, mas’ul shaxslarni belgilash

6. Ish joyida va jamiyatda mehnat sharoitlari hamda mehnat xavfsizligi va sog‘liqni saqlash
   (i) Kompaniya xodimlari va ishchilarining soni hamda milliy mehnat qonunchiligiga rioya qilish; pudratchilar va subpudratchilar tomonidan jalb qilingan ishchilar soni va ular tomonidan milliy mehnat qonunchiligiga rioya qilinishi. Kompaniya qanday qilib ushbu talablarga rioya qilinishini nazorat qiladi? Agar nomuvofiqliksizliklar aniqlangan bo‘lsa yoki ular haqida xabar berilgan bo‘lsa, subloyihani tartibga keltirish bo‘yicha  qanday chora-tadbirlar amalga oshirilgan?
   (ii) O‘tkazilgan o‘quv dasturlari
   (iii) Hodisalar qayd etilishi, shu jumladan sanasi, zarar va jarohatlar miqyosi (agar mavjud bo‘lsa); ommaviy axborot vositalari yoki jamiyatning reaksiyasini  (agar mavjud bo‘lsa) tergov qilish, ro‘yxatga olish uchun mas’ul organlar; hodisaga javoban ko‘rilgan choralar, shuningdek, hal qilinmagan har qanday masalalar va taklif etilayotgan choralar
   (iv) Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik texnikasiga oid boshqa tadbirlar yoki axborot-ma’rifiy ishlar bo‘yicha faoliyat
   (v) Tuzatish choralari, maqsadli sanalar/muddati, mas’ul shaxslarni belgilash
   (a) qisqa muddatli: holatni tuzatish choralari
   (b) uzoq muddatli: profilaktik choralar

   Gender tenglik. Gender tenglik masalalari bo‘yicha harakatlar rejasiga kiritilgan ko‘rsatkichlar/tadbirlar bo‘yicha yangilangan ma’lumotlar/ko‘rsatkichlar bo‘yicha progress. Ayollar farovonligini yaxshilash va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan Kompaniya/subloyihaning gender tenglik masalalariga oid tadbirlari haqida batafsil ma’lumot bering.

7. Ekologik boshqaruv salohiyati (subloyiha/maydonning darajasi)
   (i) Xodimlar soni va malakasi, Ekologik boshqaruv sohasida ish tajribasi (korxona darajasida tashkilot sxemasini ko‘rsating)
   (ii) Quyidagi masalalar bo‘yicha xabardorlik: (i) ekologik masalalar, (ii) mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi, (iii) atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi milliy qonunlar va meyorlar va (iv) OIIB ekologik kafolatlariga tegishli talablar
   (iii) O‘tkazilgan o‘quv dasturlari
   (iv) Ekologik boshqaruv salohiyatidagi ehtiyojlarni baholash (shu jumladan salohiyatni oshirishga doir rejalashtirilgan dasturlar)

8. Manfaatdor tomonlar bilan konsultatsiyalar

   (i) Tegishli odamlar, mahalliy hamjamyatlar, fuqarolik hamjamiyat guruhlari va boshqa manfaatdor tomonlar bilan amalga oshirilgan konsultatsiyalar va oshkor etilgan ma’lumotlar haqida batafsil ma'lumotlar (agar bunday konsultatsiyalar o‘tkazilgan bo‘lsa).

   (ii) Konsultatsiyalar davomida ko‘tarilgan masalalar va muammolarni hal qilishda qo‘llanilgan yondashuv/metodologiya haqida batafsil ma’lumotlar.

---

[7]Atrof-muhitga yoki inson salomatligiga zarar etkazgan va/yoki uchinchi shaxslarning e’tiborini tortgan hodisalar (masalan, yong'in, portlash, kimyoviy moddalar yoki neftning to‘kilishi, ifloslantiruvchi moddalarning ajralishi).

[8] Jumladan, o‘lim holatlari, og‘ir jarohatlar (shoshilinch yordam yoki kasalxonaga yotqizishni talab qiladigan), yo‘qotilgan vaqt bilan baxtsiz hodisalar (tiklanish uchun bir kundan ortiq dam olish vaqtini talab etadigan) va oqibatida kompensatsiya talab qilinishiga sabab bo‘lgan hodisalar.

(iii) Loyiha hududidagi tegishli manfaatdor tomonlar va aholiga jamoa bilan munosabatlarni rivojlantirish va mahalliy rivojlanish bo‘yicha ko‘rilgan sa’y-harakatlar va tashabbuslar.

9. Ekologik va ijtimoiy kafolatlarga qo‘llaniladigan talablarga rioya etish
   Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi (ESMP/EIBR) va Tuzatish choralarini amalga oshirish rejasi (zarurat bo‘lganda, ESMP/EIBRga kiritilgan o‘zgartirishlar bilan) qurilish yoki ekspluatatsiya bosqichida, ta’sirni kamaytirish va monitoring dasturiga urg‘u bergan holda, amalga oshirish.

10. Boshqa ma’lumotlar va sharxlar/ ishni qisqacha baholash
   Iltimos, Bank bilishi lozim bo‘lgan boshqa har qanday ma’lumotni keltiring. Bu yanada kengroq ekologik masalalar, Kompaniyadagi jamoat tashabbuslari, OAV yoki NLTlarning ijobiy e’tibori, o‘quv dasturlarni o‘tkazish tadbirlari, boshqaruv tizimiga oid tashabbuslar yoki xarajatlarni tejash sohasidagi tashabbuslarga tegishli bo‘lishi mumkin.

## 7.7. 7-ilova. Iqlimiy risklar

| Aspekt | Iqlimiy risklarning batafsil tavsifi | Riskni boshqarish |
|---|---|---|
| Qurg'oqchilik | Doimiy qurg'oqchiliklar suv resurslarining kamayishiga va Kompaniya faoliyat olib borayotgan qishloq hududlari uchun sharoitlarning yomonlashishiga olib keladi. | Suvni minimal miqdorda sarflaydigan sovutish tizimlariga o'tish; suvni qayta ishlatish; monitoring tizimlarini o'rnatish; obyektlarni zaifligi kamroq bo‘lgan hududlarda joylashtirish; energiya samarali texnologiyalarni qo'llash va muqobil suv resurslarini zaxiralash. |
| Haroratning oshishi | Haroratning sekin-asta oshishi iqlimga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadi va aholining umumiy sog'lig'iga salbiy ta'sir qiladi | Energiya samarali sovutish tizimlaridan foydalanish; an'anaviy energiya ta'minoti tizimlariga bog‘liqlikni kamaytirish va haroratning o'zgarishlariga nisbatan chidamlilikni oshirish maqsadida quyosh panellari va boshqa muqobil energiya manbalarini integratsiya qilish. |
| Yerning eroziyasi | Uzoq vaqt davomida yerdan foydalanish va nazoratsiz sug'orish yerning asta-sekin eroziyasiga olib keladi, bu esa qishloq xo'jaligi sharoitlarini va Kompaniya faoliyat yuritayotgan hududlardagi iqtisodiy faollikni yomonlashtiradi. | Yer osti va yer usti kommunikatsiyalarini (masalan, kabel va aloqa minoralari) tuproqni mustahkamlovchi to'siqlar va obyektlar uchun barqaror poydevorlar yaratish orqali himoya qilish; obyektlar atrofida yashil maydonlar yaratish va o'simliklarni tiklash orqali eroziyaning oldini olish. |
| To'fonlar, ko'chkinlar | To'fonlar va ko'chkinlar Kompaniya aktivlari uchun katta iqlimiy risklarni tug'diradi, chunki ular infratuzilma joylashgan hududda suv bosishiga va jihozlarga jiddiy zarar yetkazilishiga olib kelishi mumkin. | Ma'lumotlarning zaxiraviy nusxalarini yaratish; uskunalarni himoyalangan joylarga o'rnatish; kabel tarmoqlarini germetiklash; suv sathini monitoring qilish va tezkor ogohlantirish tizimlarini joriy etish. |
| Namlik balandligi va yog'ingarchiliklar | Namlik va yog'ingarchiliklar uskunalar va kabel tarmoqlari ishonchli ishlashiga ta'sir qilishi mumkin, ayniqsa, yog'ingarchiliklar darajasi yuqori bo‘lgan hududlarda. | Kabel tarmoqlarini germetiklash va gidroizolyatsiya qilinishini ta'minlash; drenaj tizimlarini o'rnatish; suv sathini monitoring qilish va tezkor ogohlantirish tizimlarini joriy etish. |
| Changli bo'ronlar | Changli bo'ronlar havoning sifatini jiddiy darajada yomonlashtirishi mumkin, bu esa inson sog'lig'iga zarar yetkazilishiga va Kompaniya faoliyat olib borayotgan O'zbekistonning qishloq hududlarida uskunalar buzilishiga olib kelishi mumkin. | Uskunalarga changning ta'sirini minimallashtiradigan germetik konstruksiyalar va texnologiyalardan foydalanish; uskunalarni changdan tozalash va shikastlanishlarning oldini olish maqsadida muntazam ravishda texnik xizmat ko'rsatish; ventilyatsiya tizimlaridagi filtrlarni muntazam ravishda almashtirish va yangilash. |

**Jadvallar va rasmlar ro'yxati**

**Jadval 1.** Ta'sirni baholash toifalari – 13

**Jadval 2.** Riskning ahamiyatini baholash – 14

**Jadval 3.** Riskning 4 ta toifasi bo'yicha loyihalar xususiyatlari – 14

**Jadval 4.** Risklar matritsasi – 19

**Jadval 5.** OIIB ekologik va ijtimoiy istisnolar ro'yxati – 25

**Jadval 6.** OIIB talablari – 26

**Jadval 7.** EIBR (Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi) shabloni– 27

**Jadval 8.** EIBT skriningi hisoboti – 31

**Jadval 9.** EIBT skrining so'rovnomasi– 33

**Jadval 10.** Subloyihalar to'g'risida qisqacha ma'lumot – 39

**Rasm 1.** Barqaror rivojlanish masalalarini boshqarish sxemasi, shu jumladan ekologik va ijtimoiy jihatlar – 6

**Rasm 2.** EIBT konsepsiyasi – 7

**Rasm 3.** Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish jarayonining bosqichlari – 9

**Rasm 4.** EIBT skriningi — asosiy qarorlar – 10

**Rasm 5.** EIBT skriningi so'rovnomasining tuzilishi – 11

**Rasm 6.** Risklarni baholash jarayonining natijasi – 15

**Rasm 7.** ESIA / EITB hisobotining asosiy elementlari – 16